

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**“Himoyaga ruxsat etildi”  
Pedagogika fakulteti dekani, dotsent  
X.Mavlyanov  
“\_\_\_” 2017- yil**

**5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo`nalishi, BT 47-  
2013-guruh bitiruvchisi**

**ABDURAXIMOVA (TURSUNOVA) NARGIZA ZAFARJON  
QIZINING**

**“O'QISH DARSLARIDA “TENGDOSHLAR” MAVZUSINI  
O'RGANISH METODIKASI (3-SINF)” mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**“Himoyaga tavsiya etildi”  
Boshlang'ich ta'lim metodikasi  
kafedrasi mudiri, f.-m.f.n.**

**T.Abdullayev  
“\_\_\_” 2017-yil**

**BMI rahbari: \_\_\_\_\_  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
M.Hamidova**

**Namangan – 2017**

**Mavzu: O`qish darslarida “Tengdoshlar” mavzusini o`rganish metodikasi (3-sinf)**

**REJA:**

**KIRISH**

**I BOB. 3-SINF O`QISH DARSLARIDA “TENGDOSHLAR” MAVZUSINI O`RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI**

1.1. 3-sinf o`qish darslarida “Tengdoshlar” bo`limiga kirgan har xil janrdagi asarlar tavsifi.

1.2. 3-sinf o`qish darslarida “Tengdoshlar” mavzusini o`rganishning ahamiyati.

**II BOB. 3-SINF O`QISH DARSLARIDA “TENGDOSHLAR” MAVZUSINI O`RGANISH DARSLARI VA ULARNI TASHKIL ETISH.**

2.1. Yangi pedagogik texnologiyadan foydalaniib 3-sinf o`qish darslarida “Tengdoshlar” mavzusini o`rganish

2.2. 3-sinf o`qish darslarida “Tengdoshlar” mavzusini o`rganish darsining metodik ishlanmasi.

**TAJRIBA-SINOV ISHI**

**XULOSA**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” dasturidan yoshlarimizni sog’lom va barkamol etib tarbiyalash masalasi alohida o’rin egallashi tabiiyidir.

Bu borada farzandlarimiz uchun zarur sharoitlar yaratish, yangi-yangi ta’lim-tarbiya, madaniyat, san`at va sport maskanlarini barpo etish, yosh oilalar uchun uy-joylar qurish, yoshlarni ish bilan ta’minlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish bo`yicha boshlagan ishlarimizni yangi, yuksak bosqichga ko’taramiz.

Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo`g’inlari faoliyatini bugungi zamon talabalari asosida takomillashtirishni o’zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”<sup>1</sup>, deb O’zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan bildirilgan ushbu fikrlariga qo’shilgan holda bugungi kunda yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga, ayniqsa, ularning hayotda muhim o’rin egallashlariga jiddiy e’tibor bilan munosabatda bo’lish biz pedagoglar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Shuning uchun boshlang’ich ta’limdan boshlab bolalarni sifatli ta’lim-tarbiya olishiga jiddiy e’tibor bilan munosabatda bo’lish kerak.

Bunda o’z navbatida biz bitiruv malakaviy ishimizda keng to’xtalayotganimiz o’qish darslarining o’ziga xos o’rni borligini yoddan chiqarmasligimiz lozim.

O’qish darslarining ahamiyati shundaki, ta’limning dastlabki kunlaridan boshlab o’quvchilar tabiat, jamiyat va kishilar mehnati haqidagi bilimlarni o’zlashtirib boradilar. Ana shu bilimlarni muvaffaqiyatli o’zlashtirishlariga erishish uchun o’z navbatida o’qish darslarida berilgan bo’lim materiallari bilan o’quvchilarni yaqindan tanishtirishga bog’liq.

“Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro’-e’tibori avvalambor, farzandlarimizning unib-o’sib, ulg’ayib, qanday inson bo’lib hayotga kirib borishiga bog’liqdir. Biz bunday o’tkir haqiqatni

---

<sup>1</sup>Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi //Adolat, 2016-yil.-8-dekabr.

hech qachon unutmasligimiz kerak,”<sup>1</sup>- deb yozadi “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov.

Bugungi murakkab va shiddatli zamonda, jahonda o’z o’rnini topishga intiladigan har qanday xalq va millat umumbashariy taraqqiyot yutiqlarini har tomonlama chuqr va puxta egallashi shartligini barchamiz yaxshi tushunamiz va anglab yetamiz. Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Mahmuddxo’ja Behbudiy o’tgan asrning boshidayoq “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo’lur” degan haqqoniy fikrlar bilan Turkiston ahlining ongu shuurini uyg’otishga da’vat etgani bejiz emas albatta. Chindan ham agarki hozirgi vaqtda dunyoviy ilm-fan va texnologiyalarni chuqr o’zlashtirmasak, faqat tariximiz, olis ajdodlarimizning kashfiyotlari bilan maqtanib ularga mahliyo bolib yashaydigan bo’lsak ana shu noyob merosni asrab avaylab yanada boyitib, unga o’z hissamizni qo’shmasak, zamonga ham qadam bo’lib yurmasak, bizning jahon maydonida munosib o’rin egallahimiz qiyin bo’ladi.

“Mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarni puxta egallagan, o’z yurti, o’z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo’lgan, har tomonlama sog’lom avlodni yengib bo’ladimi? Bugun biz o’z oldimizga qo’yan yuksak maqsadlarga yetishda ana shu navqiron avlodimiz hal qiluvchi kuch bo’lib maydonga chiqayotgani barchamizga g’urur va iftixon bag’ishlaydi”<sup>2</sup>, deb O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan bildirilgan ushbu fikrlari ham yuqorida biz ta’kidlab o’tgan fikrlarning yorqin dalili bo’la oladi.

Shuning uchun ham yurtimiz mustaqillikka erishgandan buyon eng avvalo xalqimizning yashash tarzini yaxshilash uchun juda ko’p ishlar amalga oshirilmoqda, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda yangi o’qish usullaridan foydalanish, ularga zarur shart-sharoitlarni yaratish yoshlarga keng imkoniyat ishlarini ochdi. Bu esa yurtimizni jahon arenasida o’z o’rnini topishida asos bo’lmoqda.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2008 – B. 1.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Ona yuryimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo’lida xizmat qilish-eng oily saodatdir.- T.: O’zbekiston, 2015.- B. 235.

“Ta’lim tog’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta’lim – tarbiya sohasidagi tub yangilanishlarni hamda islohotlarning asosiy yo’nalishlarini ko’rsatib beradi. Ta’lim-tarbiya sohasidagi bunday yangilanishlar bugungi kun talablarini o’zida aks ettiradi.

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 24 yilligi munosabati bilan 2016-yilning 7-dekabr kuni “O’zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida bo’lib o’tgan tantanali tadbirida “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” mavzusida qilgan ma’ruzasida “Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o’g’il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim.

Mana, ulug’ ajdodimiz nima dub yozganlar:

“Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo’lishi, baxtli bo’lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo’lishi yoki zaif bo’lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o’zgalarga tobe va qul, asir bo’lishi ularning o’z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog’liq”<sup>1</sup>, degan fikri ham yuqorida ta’kidlab o’tilganlarni tasdiqlaydi.

Demak, ushbu masalani hal etish ta’lim jarayoning tarbiyaviy tomonlariga va uning sifatiga, ayniqsa, o’quvchilarning mustqil fikrlash malakalarini shakllantirishga e’tiborni kuchaytirishni talab etmoqda. Bu o’z navbatida maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilari hamda boshlang’ich sinf o’qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqorida qayd qilingan tushuicha va muammolarni talqin qilish va javob topishga intilish bugungi kunimizning dolzarb masalalaridan biridir.

Yuqorida qayd qilingan tushuicha va muammolarni talqin qilish va javob topishga intilish bugungi kunimizning dolzarb masalalaridan biridir. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-aprel kuni

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi //Adolat, 2016-yil.-8-dekabr.

“Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g’risida” gi Qarorida “Oliy ta’lim tizimida o`z yo`nalishlari bo`yicha dunyoning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o`rnatish, o`quv jarayoniga ilg’or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy-ta’lim muassasalarida stajirovkadan o’tkazish va malakasini oshirish borasida ishlar yetarli darajada olib borilmayapti.

Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko`rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma`lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun sharoitlar yaratilishini ta`minlash kerak”<sup>1</sup>.

Ushbu qaror ijrosi bo`yicha yurtimizda olib borilayotgan ijobiy ishlarning natijasi sifatida umumta’lim maktablarining boshlang’ich sinflarida dars berayotgan pedagoglarning oliy ta’limda dargohlarida oladigan bilim darajalariga e’tibor yanada kuchaytirila boshlandi. Bu esa ularning yosh avlod ta’lim-tarbiyasida, ayniqsa, mustaqil fikrlesh malaklarini shakllanishida o`z ahamiyatiga egaligi bilan ajralib turadi.

2017-yil 12-yanvar kuni O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ibot ilish bo`yicha komissiya tuzish to`g’risida”gi farmoyishlari e’lon qilinganligi, ushbu farmoyishda ta’kidlanganidek, mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta’lim muassasalari uchun o`quv adabiyotlari yaratish va o`quvchilarga yetkazishning mustahkam tizimi yaratilganligi, bunda O’zbekistonda ta’lim berilayotgan yettita tilda darslik va o`quv qo’llanmalar nashr etib kelinayotganligi, Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarining moddiy-texnika bazasi yangilanib, zamonaviy elektron kutubxonalar tizimlari faoliyat ko`rsatayotganligi, umuman, ushbu Farmoyishda ko`rsatilganidek ishchi guruqlar ikki oy muddatda mutasaddi vazirliklar, idoralar va

---

<sup>1</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g’risida” gi Qarori // Xalq so’zi, 2017-yil.-21-aprel.

boshqa tashkilotlar bilan birgalikda kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, matbuot va axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi yagona davlat siyosatini yurituvchi vakolatli davlat organini belgilash, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini rivojlantirishni inobatga olgan holda, tegishli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kirishishganligi, hattoki, tajriba-sinov ishini olib borish jarayonida o'tkazilgan bu boradagi tadbirlar ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga yaqinda yordam beradi.

Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'qish darslarining samaradorligini oshirish orqali yoshlarni milliylikka va badiiy asarga bo'lган ishtiyoqini oshirishga, kitob bilan do'stlashishga undaydi. Umuman olganda, yosh avlodni ijodiy qirralarini ochishga, yangidan-yangi iste'dolarni kashf etishda asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'qish darsida xalq og'izaki ijodi namunalaridan foydalanib bolalarning fikr doirasini kengaytirishda, aql-idrokini rivojlantirishda, kuzatuvchanlik hislarini, nafosat tuyg'ularini o'stirishda zarur omil bo'lib xizmat qiladi. Bunda o'quvchilarni hamkorlik hamda tashabbuskorlik malakalari rivojlantiriladi.

Shularga e'tibor berilgan holda "O'qish darslarida "Tengdoshlar" mavzusini o'rGANISH metodikasi (3-sinf)" mavzusida bitiruv malakaviy ishimiz ustida ish olib bordik.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.** Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda 3-sinf o'qish darslarida "Tengdoshlar" mavzusini o'rGANISH metodikasini tahlil etishni asosiy maqsad qilib qo'ydik. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirdik:

- 3-sinf o'qish darslarida berilgan "Tengdoshlar" mavzusini o'rGANISH metodikasi bilan o'quvchilarni yaqindan tanishtirish;
- bo'limga kirgan asarlar xususida to'liq ma'lumot berish;
- dars samaradorligini oshirish jihatlarini tahlil jarayonlarini hosil qilish;
- ta'lim mazmunini boyitish va o'qish jarayonida turli metodning samaradorligini oshirish;

- o'qish darslariga yangicha yondashuv tizimini yaratish hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

- yangi pedagogik texnologiya asosida 3-sinf o'qish darslarida o'quvchilarning "Tengdoshlar" mavzusini o'rganish metodikasi haqidagi tushhunchalarini shakllantirish yo'llarini keng va atroflicha tahlil qilish.

### **Bitiruv malakaviy ishining obyekti.**

Biz oldimizga qo'ygan muammoni o'rganish uchun Namangan viloyati Namangan shahridagi 7-maktabining 3-sinf o'quvchilarini tadqiqot obyekti qilib oldik. Ushbu obyektda 3-sinf o'qish darslarida "Tengdoshlar" mavzusini o'rganish metodikasini tahlil qildik.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti.** 3-sinf o'qish darslarida "Tengdoshlar" mavzusini o'rganish metodikasini o'rganishning mazmuni, shakli va usullari.

**Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning milliy g'oya va mafkuraga, ta'lim samaradorligini oshirishga doir ma'ruzalari, asarlari, farmonlari, qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi uzlucksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari, Vazirlar Mahkamasining ta'lim to'grisidagi me'yoriy hujjatlari bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini tashkil etadi.

### **Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati.**

Mazkur bitiruv malakaviy ishimizning nazariy ahamiyati shundaki, 3-sinf o'qish darslarida "Tengdoshlar" mavzusini o'rganish metodikasi haqidagi tasavvurlarga aniqlik kiritadi. Bitiruv malakaviy ishimizdagi kuzatish va qarashlarimiz mavjud fikrlar asosida boyitilib, ishning nazariy qimmatini oshirishni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich ta'lim uslubshunosligida mazkur muammo maxsus o'rganilmaganligi, bugungi kunda bu masalaning muhim tomonini hisobga olgan holda ushbu bitiruv malakaviy ishimizda ilgari surilgan fikr va xulosalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimizning material va xulosalaridan 3-sinf o`qish darslarida “Tengdoshlar” mavzusini o`rganish metodikasi bo`yicha olib boradigan darslarida unumli foydalanishlari mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining joriylanishi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishimiz Namangan davlat universiteti pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida bajarilgan va shu kafedraning kengaytirilgan yig'ilishida muhokama qilinib, tugallangan bitiruv malakaviy ishi sifatida himoyaga tavsiya etilgan. Shuningdek, Namangan viloyati Namangan shahridagi 7-maktabda tashqi taqrizdan o'tkazilib, muhokama qilinib, tugallangan bitiruv malakaviy ishi sifatida himoyaga tavsiya etilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

## I BOB

### 3-SINF O`QISH DARSALARIDA “TENGDOSHLAR” MAVZUSINI O`RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

#### 1.1. 3-sinf o`qish darslarida “Tengdoshlar” bo`limiga kirgan har xil janrdagi asarlar tavsifi.

Maktab o`quvchilarga tarbiya berish ishlari dars jarayonida boshlanadi. Darslarda o`quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda ularda e`tiqod, iroda va yaxshi xislatlarni tarkib toptirish, qobiliyat va iste`dodlarini o`stirish vazifalari ham bajariladi. O`qish darslarida o`rganiladigan asarlardagi hayotiy dalillar, o`tmish va hozirgi zamon voqealarini aks ettiruvchi hikoyalilar, badiiy asarlardagi obrazlar, ulardagi insoniy his-tuyg'ular tarbiyaning asosiy vositalari bo`lib xizmat qiladi.

Ma`lumki, kichik yoshli o`quvchilar hayotiy hodisalar, turli voqealar tasvirlangan hikoyalarni, shuningdek, hali o`zlariga notanish bo`lgan narsalarni o`qib o`rganishga qiziqadilar. Kishilar hayoti va ularning o`zaro munosabatlarini bilishga intiladilar. Ularning ana shu xususiyatlaridan foydalanib o`qish darslarida tarbiyaviy ta`sir o`tkazish mumkin. Bu esa o`z navbatida darslikka kiritilgan bo`lim materiallari orqali amalga oshiriladi. Jumladan, biz bitiruv malakaviy ishimizning ushbu bobida keng to`xtalayotgan “Tengdoshlar” bo`limiga kirgan har xil janrlagi asarlarning o`rni kattadir.

Boshlang`ich sinflarning o`qish darslarida garchi ilmiy jihatdan bo`lmasa-da, amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar o`qib o`rganiladi. O`qish darsliklarga, asosan, hikoya, she`r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoq kabi janrdagi asarlar kiritilgan. Bulardan tashqari, ilmiy-ommabop asarlar ham o`qitiladi.

Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, ularning o`quvchilarga ta`siri ham har xil bo`ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingistik jihatdan ham o`ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she`riy asarlar matni hikoya matnidan, ertak matni she`r matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taaluqli asarlar matnidan tubdan farq qiladi. Topishmoq predmet, voqeal-hodisalar o`rtasidagi o`xshashlikni taqqoslash orqali

o`zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlashni taqozo etadi. Shunga ko`ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o`qishda o`qituvchidan unga mos usullar tanlash talab etiladi.

Masalan ertak janri xususida to`xtaladigan bo`lsak, xalq og`zaki ijodida ertak janrinining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o`qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta`sirchanligi, o`tkirligi, ma`nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko`pchiligidagi real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo`shilib ketadi.

Ertakning o`tkir maroqli syujeti, voqeа rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g`oyaviy yo`nalishi, unda ezgulik kuchining - yaxshilikning doimo g`alaba qilishi bolalarni o`ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so`z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta`sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarlidir. Ertakda qatnashuvchilar ko`pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo`lgan yovuz, baxil, ochko`z obrazlarga bo`linadi.

Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, o`quvchilar unda to`g`rilik, halollik g`alaba qilganidan, kambag`al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya`ni yaxshilik, ezgulik ro`yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo`lishini istaydilar. Masalan, “Halollik” ertagida (3-sinf) asosiy fikr kambag`allarga yordam ko`rsatish, o`z mehnati bilan hayot kechirish bo`lib, bu hatto butun xalq istagi ekanligi g`oyasi ilgari surilgan bo`lsa, “Hiylagarning jazosi” ertagida (4-sinf) soddadilning to`g`riligi hiylagarning makri ustidan g`olib kelishi, xiyonat jazosiz qolmasligi g`oyasi ilgari surilgan. Har ikki ertak ham to`g`riso`zlilikning g`alabasi bilan yakunlanadi. Bunday g`alaba maishiy ertaklardan tashqari, sehrli ertaklarda ham ifodalangan.

Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko`nikmasini o`stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g`alaba qozonishiga ishonch uyg`otadi. O`quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida “Kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?) Nima uchun?”, “... nima uchun jazolandi? (yoki

rag'batlantirildi?)"", "Nima uchun ertakdagi ba`zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba`zilaridan yuz o`giradi?)" kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib, xulosaga keladilar.

Boshlang'ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko`proq o`qitiladi. "Bo`rining tabib bo`lgani haqida ertak" (Anvar Obidjon), "Ko`zacha bilan tulki", "Olapar, Mosh, Musicha" kabi ertaklar aniq hayotiy hikoyalar tarzida o`qitiladi va tahlil qilinadi.

Ertak matni ustida ishslashda tanlab o`qish, savollarga javob berish, o`quvchilarning o`zlari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafik tasvirlash kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bunday ertaklarda hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi.

Maktab tajribasidan ma`lumki, kichik yoshdagi o`quvchilar ertakdagi hayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-birinikiga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, ammo ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar. Ertakni o`qib tahlil qilganda, barcha ishlar uning mazmunini yaxshi idrok etishga, syujet rivojini, qatnashuvchi personajlarning xatti-harakati, o`zaro munosabatlarini to`g`ri tasavvur etishga yo`naltiriladi. Bunda tanlab o`qish va qayta hikoyalashning ahamiyati katta. Masalan, "Odobli bo`lish osonmi?" (A. Obidjon) ertagini mazmunini o`zlashtirish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Sichqonchaning onasi bilan qilgan suhbatini o`qing. Sichqonchaning "Odobli bo`lish uchun nimalar qilish kerak?" degan savoliga onasi qanday javob qaytarganligini so`zlab bering.

2. Sichqonchaning Mushuk bilan uchrashgan holati aks ettirilgan o`rinni topib o`qing. Nima uchun "Shum Baroq" ko`zidagi yovuzlik birdaniga so`nadi?

3. Echki nima uchun Sichqonchani «Kam bo`lma» deb duo qiladi? SHu o`rinni topib o`qing.

Ertakni tahlil qilishning oxirgi bosqichida "Ertakda sizga juda yoqqan joyini topib o`qing", "Nima uchun aynan shu joyi yoqqanini aytинг", "Hayotingizda

ertakdag'i voqealarga o'xshash voqealar bo'lganmi?" kabi savol-topshiriqlar yordamida o'quvchilarning ertak xulosasini tushunishlariga erishiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayvonlar haqidagi ertaklardan tashqari, "Davlat", "Ilm afzal", "Hiylagarning jazosi", "Hunarsiz kishi o'limga yaqin" kabi maishiy ertaklarni ham o'qiydilar. Bunday ertaklarda xalq o'z hayotini hikoya qiladi, shu sababli o'quvchilar ertakni o'qigach, o'tmishtagi xalq hayotini, o'y-fikrlari va orzu-istikclarini bilib oladilar.

Bunday ertaklarni tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyshtiriladi. Bolalar o'qituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning hulq - atvori, ayrim xatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga bo'lган munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertakni rollarga bo'lib o'qiydilar.

Ertak ustida ishslashda bolalarni ertakni o'qishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi.

O'quvchilarni 1-sinfdayoq ertak tilidan erkin foydalanishga o'rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni o'qituvchi aytib berishi mumkin.

O'quvchi ertak mazmunini o'zlashtirib olgandan so'ng, uning tili ustida ishslashga alohida ahamiyat qaratilishi zarur. ertak mazmunini qayta hikoyalashda, qahramonlarga tavsif berishda o'quvchilarning o'z nutqida til vositalaridan o'rini foydalanish talab qilinadi. Til vositalaridan foydalanish uchun talab va vaziyat, ehtiyoj yaratish zarur.

Ertak tilida shunday so'z va iboralar borki, ular bolaga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, "Yo`lbars, Tulki va Bo`ri" ertagida "Tog' echkisi siz ulug'imizniki bo`lsin", "Quyon siz podshohimizning ertalabki nonushtangiz bo`lsin", "Kiyik kechqurungi taomingiz, qo'y kunduzgi xo'rangingiz bo`lsin" kabi gaplar tarkibidagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarga o'quvchilar diqqati qaratilib, ertakni so'zlab berayotganda ulardan nutqda foydalanishlariga erishish zarur.

Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishslash, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni bolalar ongiga yetkazish, yod oldirish yo'li bilan bog'lanishli nutqni

o`stirish, nutqning ta`sirchanligini oshirish, shuningdek, mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirish lozim. Masalan, “Rostgo`y bola” (1-sinf) ertagida bola o`z rostgo`yligi bilan podshoga ma`qul bo`lganligi hikoya qilingan. Ertak g’oyasiga mos xulosa esa “Boshingga qilich kelsa ham to`g’ri gapir” maqoli bilan ifodalangan. O’quvchilar ushbu maqol mazmunini tushunib olishsa, o’zlari ham yuqoridagi kabi ertak tuzib, hikoya qilib berishlari mumkin.

O’quvchilarning mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishda boshlang’ich sinf o’quvchilariga mos bo`lgan usullardan biri rasmdan foydalanishdir. Masalan, 2-sinfda “Ko`ngilchan o’tinchi” ertagida qayin, eman, shumtol, zarang, zirk, tog’terak, qarag’ay, qayrag’och, chinor kabi daraxt nomlari keltirilgan. Ularni bola ko`z oldiga keltira olmaydi. ertakni o`qishdan oldin shu daraxt rasmlarini ko`rsatib, uning o`ziga xos xususiyatlarini izohlash va nomlarini aytish lozim. Shundan so`ng didaktik o`yin o`tkaziladi:

“Daraxt rasmlari bolalarga bo`lib beriladi. Har bir o’quvchi o`ziga berilgan rasmdagi daraxtning nomini aytishi va ertakdagagi shu daraxtning so`zini o`z mustaqil fikrlari bilan aytib berishi kerak bo`ladi”.

Shu ertakni o`qib, mazmuni bilan tanishtirilgach, o’quvchilardan shaylanib, ro`parasida, sharbat, xayrli ish, xivchin, muhayyo so`zlarining ma`nosi so`raladi. Javoblar to`ldiriladi, umumlashtiriladi.

Yuqoridagi barcha fikrlarni hisobga olganda, ertakni o`rganish darslarining qurilishi quyidagicha bo`lishi mumkin:

1. O’quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;
2. O’qituvchining ertakni ifodali o`qishi, yod aytib berishi;.
3. Ertakni o’quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o`tkazish;
4. Ertakni qismlarga bo`lib o`qish va tahlil qilish; undagi ayrim tasviriy vositalar, ma`nodosh so`zlarni topish, lug’at ishi (ayrim so`zlar ma`nosini tushuntirish);
5. Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o`qish);
6. Ertakni so`zlab berish;

7. Umumlashtiruvchi suhbat (ertak g'oyasini ochish);
8. Ma'lum vazifa bilan ertakni qayta o'qish (ijodiy va mustaqil ishlar);
9. Vazifani tekshirish va yakunlash;
10. Uyda ertakni o'qib (yoki aytib) berishga tayyorlanish.

Ertak o'tish darsi namunasini keltiramiz:

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi.

“Hikoya ko`pincha kishi hayotida bo`lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmunini ertakdagidan ortiqroq hayotiydir”.

Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko`rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalari haqidagi hikoyalar ko`proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo`lgan hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishslash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So`roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar.

Hikoyani o'qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rinni egallaydi. Hikoya o'qib bo'lingach, o'quvchilar o`ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad, hikoya bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etganini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya syujeti, voqeanning yo`nalishini ochishga,

personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Ertak janriga xos matnlar jozibadorligi bilan bolani o'ziga tortadi. Lekin, hikoya janri ham hayotiyligi bilan o'ziga xos. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog'liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O'quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar. Masalan, 3-sinf "O'qish kitobi"da "Dadam qurgan dengiz" (Hakim Nazir), "Olma" (Malik Murodov), "Ilqli ming yashar" (Nurmat Maqsudiy), "Xazonchinak" (O'.Hoshimov), "Qo'shterak" (A.Irisov), "Va'da berdi" (K.Ersarin), "Mehnatkash qiz" (Oybek) va boshqa qiziqarli hikoyalar berilgan. Ular mavzu jihatdan xilma-xil bo'lib, qahramonlarining xarakter - xususiyatlari bilan ham farq qiladi.

Hikoya biror bir davr bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchilar qahramonlarning ma'naviyatiga bo'lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong'i tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo'la boshlaydilar. Ularda go'zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'usi hikoyalar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi. Masalan, 3-sinfda "Jaloliddin Manguberdi" hikoyasida Chingizzon va uning qo'shinlariga nisbatan nafrat uyg'otilsa, Jaloliddin Manguberdining xatti-harakati orqali ona-Vatanga mehr-muhabbat uyg'otiladi, uning taqdiri orqali o'z ajdodlaridan faxrlanish tuyg'usi paydo bo'ladi.

Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko'rishni taqozo etadi. Undagi har bir so'z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi.

Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o'rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, shartli yoki ijodiy o'qish, muammoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda hikoya syujeti, kompozistiyasi, qahramonlarini o'rghanish bo'yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o'quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi.

"Jaloliddin Manguberdi" hikoyasi qahramonlarini, ularning xatti-harakatlarini o'rghanish va tahlil qilishni matnga tayangan holda quyidagi reja asosida amalga oshirish mumkin:

1. Chingizxonning hiyla ishlatgan o'mini matndan toping. U sizda qanday taassurot qoldirdi?

2. Jaloliddin Manguberdining eron va Afg'onistonda mo'g'ullarga qarshi kurashib, erishgan g'alabasi tasvirlangan o'rinni topib o'qing.

3. Lashkarboshilarining o'lja taqsimlashi oqibatida nima yuz beradi? Bu o'rinni matndan toping.

4. Jaloliddin Manguberdining jasorati yana qaysi o'rinda ko'rindi?

5. Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga nima uchun tan beradi?

Shundan so'ng o'quvchilar Jaloliddin Manguberdi haqida ongli fikr yuritadilar. Chingizxon bilan Jaloliddin Manguberdining xatti-harakatlarini taqqoslab, farqlaydilar.

Hikoya mazmunini o'zlashtirish bo'yicha matn asosida quyidagicha ishlar amalga oshiriladi:

1. Matn mazmuni yuzasidan o'qituvchi savollariga javob berish;

2. Hikoya matniga berilgan savol-topshiriqlarni bajarish;

3. Hikoya mazmuni yuzasidan o'quvchilarining savollar tuzishi;

4. Hikoya mazmuniga mos rasmlar chizish;

5. Hikoya matnini qismlarga bo'lish;

6. Har bir qismga sarlavha topish;

7. Hikoyaga reja tuzish;

8. Reja asosida qayta hikoyalash (to'liq, qisqartirib va ijodiy qayta hikoyalash)

9. Reja asosida bayon yozish.

Tahlilda o`qilayotgan hikoya matnining tushunarligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tushunarlik deganda yozuvchi yaratgan badiiy olamning o`ziga xosligi, obrazli tasvirning o`quvchi hayotiy tajribasi, bilim darajasiga muvofiqligi nazarda tutiladi.

Hikoyani o`rganishda savollarni, odatda, o`qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o`quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi, asar mazmunini yaxshi tushunish, o`z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to`liq esda saqlab qolishda o`quvchilarga yordam beradi.

Hikoyani izohli o`qish darsini quyidagicha reja asosida olib borish mumkin:

1. Hikoyani o`qishga tayyorlash (hikoyadagi kabi odamlar hayoti va davrga xarakteristika berish va boshqa.);
2. Hikoyani o`qish (bunda to`liq va ma`no jihatdan tugal qismni o`qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o`quvchi ifodali o`qishi mumkin);
3. Lug`at ustida ishslash;
4. Idrok etishni tekshirish (qatnashuvchilarining xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o`rtasidagi munosabatlar yuzasidan qisqacha suhbat);
5. Hikoyani qayta o`qish (qismlarga bo`lib, rollarga bo`lib o`quvchilarga o`qitish)
6. Hikoyaning har bir bo`limi (qismi) yuzasidan suhbat uyushtirish, hikoya rejasini tuzish;
7. Reja asosida qayta hikoyalash;
8. Hikoya asosida ijodiy va mustaqil ishlar;
9. Hikoyani ifodali o`qishga yoki sahnalashtirishga tayyorlanish (sinfda yoki uyda);
10. Hikoyani ifodali o`qish va ifodali qayta hikoyalash.

She`r - ohang jihatidan ma`lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq. She`riy nutqni ohang jihatidan ma`lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo`laklarning izchil va bir

me`yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so`zlar) hisoblanadi<sup>1</sup>.

She`rni o`qiganda kichik yoshdagi o`quvchilar tabiat va jamiyat voqeahodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang`ich sinflarda she`r tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, ya`ni she`riy asarlar va lirik she`rlar o`qitiladi.

She`riy hikoyada syujet, ya`ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she`r “biror hayotiy voqeahodisa ta`sirida insonda tug'ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali turmushni aks ettiradi”. Lirik she`rning xususiyati “kishining his-tuyg'uga to`la hayajonli nutqini ta`sirliroq ifodalashda qo'l keladi”<sup>2</sup>.

She`rni o`qish darslarida asosiy ish turi ifodali o`qish hisoblanadi. O`quvchi she`rning asosiy mazmunini tushunsagina, uni ifodali o`qiy oladi. She`riy hikoyani tahlil qilishda, asosan, hikoya, ertakni tahlil qilishda qo'llangan ish turlaridan foydalanish mumkin.

Lirik she`rni o`qish va tahlil qilish o`qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko`p hollarda she`rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunday holda she`riy san`at hissiyot bilan bog`liq ekanligi unutiladi, she`r ma`nosining satrlar, so`zlar zaminida yashirin berilishi anglab etilmaydi. Buning oqibatida o`quvchilar she`rdagi obrazlilikning mag`zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma`noni o`qish mehnattalab ishdir. Busiz hatto adabiy ta`limning maqsadi ham amalga oshmaydi.

She`riy ohangni his qilmaslik, matn so`zlarini to`la tushunib etmaslik she`r yodlashni zerikarli mashg`ulotga aylantiradi. Ma`nosи anglanmagan matnni yodlash oson kechmaydi. Buni deyarli barcha sinflarda o`rganiladigan “O`zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi” misolida ko`rish mumkin. Ma`lumki, madhiya kichik yoshdagi bolalarga mo`ljallab maxsus yaratilmaydi. Binobarin, uning matnidagi “hur o`lka”, “to abad”, “ilmu fan”, “shuhrating”, “ajdodlar”, “mardona ruhi senga yor”, “o`chmas iymoni”, “istiqlol mash`ali”, “tinchlik posboni”, “haqsevar ona

---

<sup>1</sup> Номидий Н. va boshqalar. Adabiyotshunoslik terminlari lug`ati. - T.:O`qituvchi,, 1967, 92 - bet.

<sup>2</sup>O'sha asar, 93 - bet.

“yurt”, “mangu bo’l obod”, “jo’sh urgan” kabi ko’pdan-ko’p so’zlar, iboralar o’quvchilarga izohlab tushuntirilmasa, ta’limdan ko’zlangan maqsadga erishib bo’lmaydi.

4-sinfda Q. Hikmatning “Qish to’zg’itar momiq par” she’rini o’rganishda albatta tabiat manzaralarini izohlash talab etiladi. She’rni o’qishdan oldin unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o’tkaziladi yoki she’r mazmunini tushunish uchun o’quvchilar bilishi lozim bo’lgan voqealarni o’qituvchi qisqa qilib aytib beradi.

Ma’lumki, qish fasli go’zal ko’rinishi bilan odamda yoqimli tuyg’ular uyg’otadi. Qishda bolalar chana uchish, qorbobo yasash, qorbo’ron o’ynashdan olam-olam zavq oladilar. Qishdagi sof va toza havogina emas, oppoq qorga burkalib turgan daraxtlar, dala-bog’lar kishida ajib bir kayfiyat uyg’otadi.

“Qish to’zg’itar momiq par” (Qudrat Hikmat) she’rini o’rganish jarayonida agar qor yog’magan bo’lsa, ayni manzara tasvirlangan rasmlardan foydalanish ham mumkin. Qish fasli haqida gapirilar ekan, albatta, “kumush” sifati qo’shib aytildi. Bu shu fasl hukmronligi davridagi manzaraga, qorning oppoq bo’lib tovlanishiga, ko’zlarni qamashtirishiga ishoradir. Ushbu she’rni o’rganish darsi dastlab o’quvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini aniqlashdan boshlanadi. Qishning o’ziga xos belgilari, qishda o’ynaladigan o’yinlar, qish manzarasi yuzasidan savol-javob o’tkaziladi. O’quvchilarning qish faslidasov uq bo’lishi tufayli ayrim qushlarning o’lkamizni tark etib janubga uchib ketishlari, qishda sovuqqa mos issiq kiyimlarning kiyilishi haqidagi tushunchalari aniqlashtirilib, to’ldiriladi. Shundan so’ng o’qituvchi she’rni ifodali o’qiydi.

Boshlang’ich sinflarda ko’rgazmali ta’limning asosiy shakli she’rni ifodali o’qish hisoblanadi. Lirk she’rni ham o’quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim. Shuning uchun she’r birinchi marta o’qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She’r o’quvchilarga qanday ta’sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O’qituvchi she’rni shunday ifodali o’qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so’z kuchliroq ta’sir etsin. So’ngra she’rni mustaqil o’qish topshiriladi. O’qish oddiy bo’lishi kerak. O’qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g’azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga

yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'rni o'qiganda, she'riy satrga riosa qilishlari kerak, bu jarayonda ularning she'r ritmini buzmasliklariga erishish kerak.

O'quvchilar she'r matnini mustaqil o'qiyotganlarida doskaga ma'nosi izohlanadigan so'zlar yozib qo'yiladi. Masalan, "Qish to'zg'itar momiq par" she'ri o'rganilganda "to'zg'itar", "momiq par", "oq namat", "nazdimda", "zarra" so'zları izohlanadi. Shundan so'ng, she'r o'quvchilarga navbat bilan o'qittiriladi, uning mazmuni yuzasidan savollar asosida suhbat o'tkaziladi. Unda quyidagicha savollar berilishi mumkin: "She'rda qaysi fasl tasvirlangan ekan?", "Shoir qor yoqqan joylarni nimaga o'xshatadi?", "She'rda qor yog'ishi nimaga qiyoslangan?", "Shoir qorga qanday murojaat qiladi?". O'qituvchi berilgan javoblarni to'ldirib, o'quvchilarning qish fasliga doir tushunchalarini boyitadi.

"Qish" (Tursunboy Adashboyev) she'rining hajmi unchalik katta emas. Lekin u qishda hayvonlar hayotida ro'y beradigan o'zgarishlarni bilib olishga yaqindan yordam beradi. Bu she'rni o'qishdan oldin ham o'quvchilar bilan savol-javoblar o'tkaziladi. O'quvchilar diqqati hayvonlarning qishdagi hayotiga qaratiladi. Masalan, qishda yovvoyi quyonlarning rangi o'zgarib, qorda o'zini dushmanidan himoya qiladigan oq rangga kirishi, ayiqning o'siq yunglari sovuqda yashashga qo'l kelishi to'g'risida tushuncha beriladi. She'r matni bilan tanishishdan oldin doskaga "ayoz", "quyruq", "so'qmoq", "piyma", "po'stin" "pahmoq" so'zları yozilib, ma'nosi izohlanadi. She'rni navbat bilan o'quvchilarga to'rt-besh marta o'qitilganidan keyin uning mazmuni yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. She'rning to'la mazmuni uch-to'rt o'quvchilarga gapirtiriladi, ularning fikr-mulohazalari to'ldiriladi. Mazkur mavzuni o'rganish jarayonida maktab atrofiga sayohat uyuştirish ham mumkin. Qishda qor bosgan dalalarni, tomlarni, daraxtlarni, odamlarning va qushlarning qishdagi hayotini kuzatish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va nutqining ifodali, sermazmun bo'lishi uchun boy material beradi.

O'quvchilar barglari to'kilib, sovuqda qor bosib turgan daraxtlarni ko'rарекан, shu holatni ifodalagan "qor ko'rpasiga o'rangan yalang'och daraxt" yoki "sovuoqda mudrayotgan daraxt" kabi iboralarni topishga harakat qiladi, bu esa o'quvchilarning lug'at boyligining oshishiga xizmat qiladi.

She`r matni ham savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo, she`r mazmuni haqida o`quvchilarga ko`p savol berish tavsiya etilmaydi. O`quvchilar she`rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o`zi kifoya. Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o`ziga xos fikrlari, his-tuyg`ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek, zamonamiz qahramonlari, o`zbek xalqi, Vatan himoyasi, xalqimizning qahramonona ishlari haqidagi she`rlar mazmunini to`liqroq tahlil qilish talab etiladi. Bunday she`rlarni o`qishga maxsus tayyorlaniladi: she`r mazmuniga asos bo`lgan tarixiy voqeа haqida qisqacha so`zlab beriladi yoki suhbat o`tkaziladi.

Boshlang`ich sinflarda o`rganiladigan ko`pgina she`rlarni tahlil qilib, ifodali o`qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi.

She`riy nutq engil yodlab olinadi, bolada estetik his-tuyg`u uyg`otadi. Kichik yoshdagi o`quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmi jarangdor she`rlarni bolalar tez va oson yodlab oladilar.

Kichik yoshdagi o`quvchilarga she`rni qanday yodlash kerakligi o`rgatiladi. Buning uchun o`qituvchi o`quvchilar bilan she`rni teng satrli bir necha qismga bo`ladi. O`quvchilarga har bir satr oxirida pauza (to`xtam) qilish, buning uchun satr oxirida tinish belgisi bo`lishi shart emasligi, ritmik to`xtamda ovozni nuqtadagi kabi pasaytirmaslik lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi tushuntiriladi va bo`lingan qismlar navbati bilan yodlatiladi.

Epik (voqeiy) she`rlar yoki she`riy usuldagи adabiy ertaklar kishilar hayotida yuz bergen yoki yuz berishi mumkin bo`lgan biror voqeani umumlashtirgan holda ifodalash bilan hikoyalarga o`xshaydi. Voqealarni ifoda etuvchi vositalarning ohang jihatdan tartibga solinishi, kichik bo`laklarning izchil va bir me`yorda takrorlanishi, misralarda ohangdosh so`zlarining qo`llanishi bilan she`riy nutq sanaladi. SHu sababli bunday asarlarni o`rganishda she`r va hikoya ustida ishslash metodikasidan foydalaniladi.

Epik she`rlarni o`qishga o`quvchilar alohida tayyorlanadi, ularda ifoda etilgan voqealar yuz bergen davr haqida tasavvur hosil qilinadi. Bunday she`rlarning mazmuni qay darajada o`zlashtirilganligiga ham alohida e`tibor qaratilishi lozim.

Bunda ta`limiy vositalar-rasmlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Asar matni ustida ishlashda uni qismlarga bo`lish, har bir qismdag'i asosiy fikrni aniqlash, reja tuzish va qayta hikoyalash, qaxramonlarga tavsif berish va tarbiyaviy xulosalar chiqarish kabi tahliliy ishlar amalga oshiriladi.

Epik she`rlarning nasriy asarlar kabi tuguni, kul'minastion nuqtasi, echimi mavjud bo`ladi. Shu sababli asar mazmuni savol-topshiriqlar orqali tahlil qilinadi. Savol-topshiriqlar o`quvchilar tomonida ham tuzilishi mumkin.

Bunday she`rlarni tahlil qilish asar voqealari jarayonida qahramon holatlarini o`quvchi ko`z oldida yaqqol gavdalantirish imkonini beradi. Bunda ayrim epizodlarga rasmlar ham chizdirish mumkin.

Epik she`rlarning badiiy til vositalari ma`nolarini ochish, ohangdosh so`zlarni aniqlash, band va misralar, bo`g'inlar sonini belgilash, ifodali o`qish, ayrim epizodlarni yod oldirish kabi ish turlari qo'llansa, maqsadga muvofiq bo`ladi.

She`rni izohli o`qish darsining tuzilishi quyidagicha bo`lishi mumkin:

- 1) she`r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o`qib berish (birinchi sintez);
- 2) she`rda tasvirlangan payt, hodisa haqida suhbat (analiz);
- 3) she`rni ifodali o`qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);
- 4) she`rni yod aytib berishga tayyorlanish;
- 5) epik (voqeiy) she`rlar ustida ishslash;

Maqol - turmush tajribalari zaminida tug'ilgan va xalq donoligini ifodalagan qisqa, ko`pincha she`riy shakldagi hikmatli so`zlar, chuqur ma`noli iboralardir. Maqol xilma-xil mavzularda bo`lib, hayotning turli masalalarini qamrab oladi. Ko`pincha maqol o`git, nasihat xarakterida bo`ladi: “Yer haydasang - kuz hayda, Kuz haydamasang yuz hayda”, “Hunari yo`q kishining, mazasi yo`q ishining” kabi.

Maqol xalq og`zaki ijodining juda qadimiy shakllaridan biri bo`lib, unda xilma-xil badiiy ifoda vositalari - ohangdor tovushlar takrori bo`ladi.

Katta hayotiy va ijodiy tajribaga ega bo`lgan ajoyib so`z ustalarining o`lmas satr va hikmatli so`zлari ham ko`pincha, xalq maqollariga o`xshab ketadi. Masalan, A. Navoiyning “Mahbub ul-qulub”da aytgan bir qancha hikmatli so`zлari shular

jumlasidandir: “Oz-oz o`rganib dono bo`lur, qatra-qatra yig’ilib daryo bo`lur”, “Tilga ixtiyorsiz - elga e`tiborsiz” va boshqalar.

Ma`lumki, badiiy asar matni ustida ishslash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Maqollarni o`rganishda ham bu bosqichlarga e`tibor qaratish kerak. 1-2-sinflarda maqollarni o`rganishning birinchi bosqichi bo`lsa, savod o`rgatish davri maqollarni o`qish va o`rganishning tayyorlov bosqichidir.

Savod o`rgatish davridayoq o`quvchilar maqollarni o`qiydilar. Alifbe davrida berilgan maqollar matn mazmuni bilan bog’liq bo`lib, ular matn g’oyasini o`quvchilarga lo`nda, aniq yetkazish uchun ham xizmat qiladi. Bu vaqtda o`quvchilarga maqollar o`qitiladi, ma`nosini bilganlaricha izohlab berishlari so`raladi. O`quvchilar javobini o`qituvchi to`ldirib, misollar bilan dalillab beradi.

Maqollarni o`rgatish o`qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi. Har bir darsga tayyorlanayotganda asar mazmuniga va unda ilgari surilgan g’oyaga mos maqol ustida qanday mashq uyushtirishni rejalashtirib olish lozim. Iloji boricha ularni dars rejasiga kiritish, izohli lug’atlar (Masalan: Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedovning “Hikmatnoma” (o`zbek maqollarining izohli lug’ati), Toshkent, 1990) dan uning ma`nosini oson izohlaydigan, sodda til bilan tushuntirish mumkin bo`lgan shakllarini bilib olish zarur. Buning uchun o`qituvchi “Maqollar to`plami” va ularning izohiga oid adabiyotlarga ega bo`lishi kerak.

Boshlang’ich sinflarda matn ostida berilgan maqollarni o`qish va o`rganish, tahlil qilish asar o`qib, tahlil qilinib bo`lingach, amalga oshirilishi kerak. Aks holda asar mazmuni va unda yozuvchi aytmoqchi bo`lgan g’oyani tushunmay turib, maqolning ma`nosini izohlash qiyin bo`ladi. Mualliflar ham maqol ma`nosini asar voqealari bilan izohlamoqchi bo`ladilar.

1-2-sinflarda maqolni ifodali o`qish va yod olishga ahamiyat beriladi. 1-sinf darsligida bo`lim yuzasidan berilgan savol topshiriqlarda ham maqollarni o`rganishga katta e`tibor berilgan. Masalan, “Xalq o`giti - baxt kaliti” bo`limidagi savol-topshiriqlarda “Rostgo`ylik haqidagi maqollardan ayting”, “Odob insonga husn” bo`limida “Qanoatda - barakat” maqolining ma`nosini tushuntirib bering”, “Ko`klam - yashnadi olam” bo`limidan so`ng “Bilim olish haqidagi maqollarni ayting” kabi

vazifalar berilgan. Har bir bo`lim yuzasidan berilgan vazifalarda u yoki bu maqolni o`rganish ko`zda tutilgan.

1-2-sinfda maqolning mazmunini o`rganish va yod olishdan tashqari, uning matnidagi izohtalab so`zlar, birikmalar ustida lug`at ishi o`tkazish, badiiy til vositalari, ko`chma ma`noli, qarama-qarshi ma`no bildiruvchi, maqolda takrorlanib kelayotgan so`zlar ma`nosini yuzasidan ish olib borish talab etiladi.

Masalan, 1-sinf “O`qish kitobi” da “Ona yurting - oltin beshiging” maqoli berilgan. Mana shu maqol matni ustida ishlaganda, “Yurt” so`zini qaysi so`zlar bilan almashtirish mumkin?”, “Maqolda ona yurt nimaga tenglashtirilayapti?”, “Beshik oltin bo`ladimi?” kabi savollar berish yo`li bilan o`quvchilarining lug`atini boyitish, bog’lanishli nutqini o`stirish ustida ishlanadi. Bundan tashqari, “Eling senga cho`za qo`l, Unga doim sodiq bo`l” maqolining ma`nosini tushuntirishda shu bo`limdagi asarlardan, bolalar uchun davlatimiz tomonidan yaratib berilgan sharoitlardan misollar keltirish lozim. Masalan, “Jar” sport kompleksi sizning sog`lom o`sishingiz uchun yaratildi. Maktabda bepul bilim olyapsiz. Shunga javoban siz nima qilishingiz kerak?” kabi. Shu maqolning badiiy til vositasi ustida ishlashda “Qo`l cho`za” deganda nimani tushundingiz?” kabi savollar bilan o`quvchilarga murojaat qilish va uning qanday ma`noda kelayotganini aytib o`tish foydadan xoli bo`lmaydi.

2-sinfda “Ish ishtaha ochar” matnidan keyin: “Ish ishtaha ochar, Dangasa ishdan qochar”, “Kuch birlikda” matniga “Birlashgan o`zar, Birlashmagan to`zar” maqollari keltirilgan. Bu maqollar ustida ishlaganda ham darslikdagi matn o`rganib bo`lingach, asarning g`oyasini ochishda va xulosa tarzida maqol mazmuni ochiladi. Maqol tili ustida 1-sinfda uyushtirilgan ishlar 2-sinfda ham davom ettiriladi. Maqol ustida ishslash orqali o`quvchilar uning yaratilishi haqida, uning oddiy gapdan farqini bilib oladilar.

1-sinfda maqollarni to`g`ri o`qish va yod olishga e`tibor ko`proq qaratiladi, 2-sinfda esa o`quvchilardan matn mazmuniga mos maqollar aytishni talab qilish mumkin.

3-4-sinflarda maqollar maxsus darslarda va badiiy asarni o`rganish jarayonida ham muntazam o`rganib boriladi. Bu sinflarda maqollarni o`rganishdan ko`zlangan

maqsad o`quvchilar dunyoqarashini shakllantirish, to`g`ri va ongli o`qish malakalarini takomillashtirish, maqoldagi har bir so`zning va yaxlit maqolning ma`nosini to`liq idrok etishga erishishdir. O`quvchilar o`qilgan matn ichidan maqollarni, hikmatli so`zlarni o`zi mustaqil topa olish ko`nikmasini egallashi, ular yordamida o`qilgan asarlar yuzasidan to`g`ri hukm chiqarishga o`rganishlari zarur.

3-4-sinflarning “O`qish kitobi” da “Xalq og`zaki ijodi” bo`limi tarkibida “Maqollar” mavzusi alohida olingan. Bu mavzuni o`rganishda maqolning kelib chiqishi, yaratilishi haqida dastlabki elementar ma`lumotlar beriladi. Bunda maqollar xalqning uzoq yillik hayotiy tajribasi asosida vujudga kelganligi, tarbiya vositasi sifatida har bir xalqning milliy ma`naviyatining shakllanishida muhim vosita bo`lishi haqida dastlabki tushunchalar beriladi.

3-4-sinflarda maqol janri bo`yicha tahliliy ishlar o`quv yili davomida izchil uyushtirilib boriladi, ya`ni “Asar g`oyasiga oid maqol ayting”, “Maqollar asosida krossvord tuzing, rebus yarating” kabi topshiriqlar beriladi, “Maqollar aytish musobaqasi”, “Maqollar mushoirasi” kabilar tashkil qilinadi.

Maqollarni o`rganishda ko`rgazmalilik, nazariyaning amaliyat bilan bog`liqligi, ta`lim-tarbiyaning birligi tamoyillariga amal qilinadi.

Yuqoridagilarni hisobga olganda, maqolni o`rganishda quyidagi ish turlaridan foydalilanadi:

1. Maqolni o`qib, uning mazmuni ustida ishlash;
2. Maqoldagi so`zlarning ma`nosini izohlash;
3. Badiiy til vositalari ustida ishlash;
4. Maqolni yod oldirish;
5. Maqol matnidagi qarama-qarshi ma`noli va ma`nodosh so`zlarni aniqlash va ularning maqolda ifoda etilgan g`oya bilan aloqasini ochish;
6. Matn mazmuni va g`oyasiga mos maqol toptirish;
7. Maqollarni mavzular bo`yicha guruhlash.

Topishmoq va tez aytishlarni o`rganish metodikasi

Topishmoqlar narsa yoki hodisalarning ataylab yashirilgan belgisi, shakli, xatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalarga qiyoslash asosida

topishga asoslangan she`riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlardir. Topishmoqlar xalq turmushi bilan chambarchas bog'liq holda yaratiladi. Ularning zaminida kishilarning qadimiy e`tiqod va tasavvurlari, olamni bilish va idrok etishga bo`lgan intilishlari yotadi.

Topishmoqda yashirilgan narsalar uning javobi hisoblanadi. Topishmoqning javobini topish uchun topishmoq matnini yaxshilab o`qish, nimaga ishora qilinayotganligini fahmlash, topishmoqning asosiy xususiyat va belgilari aynan nimaga qaratilganligini taxmin qilish bilan ham topishga harakat qilish kerak.

Topishmoq o`quvchilarni topqirlilik va hozirjavoblikka o`rgatadi. Shu sababli xalq og`zaki ijodining bu janridan darsliklarda ham keng qo`llanilgan. 1-2-sinf “O`qish kitobi” da topishmoqlar ko`proq har bir matn ostida keltirilgan. Bundan ko`zlangan maqsad matn mazmunini topishmoqlar asosida ham o`zlashtirilishiga erishishdir. Masalan, 1-sinf “O`qish kitobi” da “Kitobga mehr” matni ostida “Qat-qat qatlama, Aqling bo`lsa tashlama” topishmog'i keltirilgan va mavzuga juda mos tanlangan. Topishmoqlar bunday shaklda berilganda ularning javobi oson topiladi. 1-4-sinf o`qish darsliklarida “Topishmoqlar” mavzusi ostida har xil topishmoqlar ham berilgan bo`lib, ular o`quvchilarning topqirligini yanada oshiradi, tafakkurini o`stiradi. Darsliklarda topishmoq javoblari ostiga yozib qo`yilgan yoki rasmlar orqali berilgan. 3-4-sinflarga o`tgach esa javoblar qayd etilmagan. Buning sababi shuki, bu davrga kelib o`quvchilar topishmoqlar ustida ishlash ko`nikmalarini hosil qilgan bo`ladi.

Shuni alohida ta`kidlab o`tish kerakki, boshlang'ich sinf darsliklariga o`quvchilar yoshiga mos, mavzular bo'yicha tanlab olingan, ko`proq tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan topishmoq, latifa va tez aytishlar tanlab kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Topishmoq, latifa va tez aytishlarni o`rganish boshlang'ich sinflarda dastlab har bir darsda amalga oshirilib boriladi. Alohida dars sifatida o`rganishda esa o`qituvchilar turli usullardan foydalanishlari mumkin.

## **1.2. 3-sinf o`qish darslarida “Tengdoshlar” mavzusini o`rganishning ahamiyati.**

Ma`lumki, boshlang’ich sinf o`quvchisiga ijtimoiy tarbiya berishda, uni jamitya hayotiga olib kirishda mutolaa madaniyatining o`rni beqiyosdir. Chunki boshlang’ich sinf o`quvchisi mакtabga kelgan kunidan boshlab, bu yerdagi yurish-turish qoidalari, o`zini jamoat joylarida munosib tuta olishi, muomala madaniyati, jamoatchilik mulkiga munosabatni asta-sekinlik bilan o`ргана boshlaydi. Ayniqsa, 1-sinf o`quvchilariga taqdim etilgan o`quv anjomlariga, jumladan, kitoblarga nisbatan ehtiyyotkorlik, ularni asrab avaylash, ularga mehr qo`yib borishni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Chunki yoshlarda shakllanishi zarur bo`lgan mutolaa madaniyatining ilk debochasi aynan boshlang’ich sinfda o`quv predmetlari bo`yicha darsliklarga bo`lgan to`g’ri munosabatdan boshlanadi.<sup>1</sup>

Boshlang’ich sinf o`qish darslarining muhim vazifalaridan biri o`quvchilarning o`qish malakalarini takomillashtirish va ularga tarbiyaviy ta`sir o`tkazish, ularning shaxsini tarkib toptirishdan iboratdir. Bu vazifani bajarishda darsda o`рганиладиган har xil janrdagi badiiy asarlar, ularning g’oyasi, undagi obrazlar muhim ahamiyatga ega. Chunki badiiy asar, undagi obrazlar orqali kishilarning hayotiy tajribalari, tabiat va jamiyatdagи voqeа-hodisalarni nafis so`zlar bilan san`atkorona yoritlgan bo`ladi. Ana shu hayotiy voqealar tasvirini o`quvchilarga to`laqonli yetkazish, asardagi obrazlar va voqelikka yozuvchining qarashlarini tushuntirish orqali tarbiyaviy maqsadlar amalga oshadi.

O`qish darslarida o`tkaziladigan badiiy asar tahlili shu maqsadlarga erishish uchun yordam beradi.

Boshlang’ich sinf o`qish darslarida badiiy asar tahliliga e`tibor kuchaytirilganligining boisi ham shunda. Lekin maktablar tajribasida bu masalaga yetarlicha e`tibor berilmayapti. Boshlang’ich sinflarda faoliyat olib borayotgan ayrim o`qituvchilar badiiy asar tahlili deganda asar matni so`ngida berilgan savollar

---

<sup>1</sup>Osipova G. Bilganimiz bilmaganimizdan ko`p // Boshlang’ich ta’lim, 2006.- № 6. B. 10-11.; Yo`ldoshev M.O. Boshlang’ich sinf o`quvchilarida mutola madaniyatini shakllantirish yo’llari // Boshlang’ich ta’lim: muammo va yechimlar (Respublika ilmiy va amaliy anjuman materiallari).-Andijon, 2913 yil, B. 15-16.

asosida suhbat o`tkazishnigina tushunadilar. Shuning uchun bitiruv malakaviy ishimizning ushbu birinchi bobida “3-sinf o`qish darslarida “Tengdoshlar” mavzusini o`rganishning ahamiyati” xususida keng to`xtalib o`tishni o`rinli deb bildik.

3-sinf o`qish darslarida “Tengdoshlar” bo`limida o`zbek adiblarining kichik yoshdagi tengdoshlar hayoti, orzulari, do`stligi, halolligi, odobi, kattalarga yordami, jamoa xo`jaligiga qo`shayotgan hissasi, yoshlarning vazifalari ifodalangan asarlar hamda maqol, topishmoqlarga o`rin berilgan.

Binobarin, Rauf Tolibning “Biz –istiqlol tengdoshlarimiz” she`ri, Farhod Musajjonning “Yaxshilik” hikoyasi, H.Sa`dullaning “Ikki qız” she`ri, Maqsud Shayhzodaning “Jigarlarga tilaklarim” she`rlarini o`qish zamirida tengdoshlarining hayotida qilgan ishlari bilan tanishadilar. Yozuvchi, shoirlarning yoshlari haqidagi fikrlariga munosabat bildiradilar.<sup>1</sup>

O`qituvchi nutqining muhim fazilatlaridan biri ifodalilikdir. Ifodalilikkina nutqning tinglovxb tomonidan qabul qilinishini ta`minlaydi. Ifodalari sodda, ammo katta mazmunga ega bo`lgan nutq tinglovchida qiziqish uyg`otadi va uning ongiga tez qetib boradi. Ifodalilik nuqtai nazaridan qaralganda kishilarning nutqlari xilma-xildir. Hatto bir mavzuga bag`shilangan turli kishilarning nutqi turlicha ifodalanishi mumkin. Bunday nutqlarning biriga tinglovchi qiziqib qarasa, boshqasiga nisbatan loqayd munosabatda bo`ladi. Nutqni ravon qilishda mavzu va xabarning mantiqi, dalillarning yangiligi, muallifning ta`sir o`tkazish vositalari, nutqning struktura xususiyatlari muhimdir.

Biz A.Qodiriy, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor, A.Oripov, E.Vohidovlarning ko`pgina asarlarini hayajon bilan o`qiymiz. Bunga sabab nima? Masalan, O`zbekiston mavzusida juda ko`p she`rlar yozilgan. Lekin Oybek, H.Olimjon, A.Oripov she`rlarini boshqalardan afzal ko`ramiz. O`z-o`zidan ravshan bo`ladiki, nutqning tuzilishi xususiyati, fazilati, xossalari bizning fikr va tuyg`ularimizni, diqqatimizni yorqinlashtiradi, aytilganlarga qiziqish uyg`otadi. O`z tuzilishi xususiyatlari, fazilati, xossalari bilan tinglovchining fikr va tuyg`ularini, diqqatini yorqinlashtigan,

---

<sup>1</sup> Umarova M. Uchinchi sinfda o`qish darslari: (Ta`lim o`zbek tilida olib boriladigan maktablarning boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun uslubiy qo`llanma). -Toshkent: Ijod dunyosi, 2004.- B.68-70.

aytilganlarga qizitsish uyg'otgan nutq ifodalidir. Ifodali she'riy nutqqa misol qilib R.Tolibning "Tengdoshlar she`rini ko'rsatish mumkin. Bu she`rning badiiy shakli tashqi tomondan juda sodda. Leksikasi ham; sintaksisi ham, ohangi ham hammabop, sodda. Ammo iste`dodli shoir ana shu soddalik, hammaboplrik orqali asarning badiiy ta`sirini ta`minlagan. Unda lirik qahramonning vatanga bo'lган qaynoq hislari, fidoyiligi, sevgisi, ishonchi o'z ifodasini topgan. She`rda nutqiy ifodaviylik ko'zga tashlanib turmasada, u o'quvchini o'ziga band etadi, mulohaza yuritishga uddaydi.

Nutqning nimaga qaratilganligi, qanday voqealar unda aks etganligiga qarab ifodalilik xilma-xil ko'rinishlarda bo'ladi. Quvonch ifodasi, qo'rquv ifodasi, hayajon va chaqiriq ifodasi, jimlik va ajablanish ifodasi bor. Bularning har biri o'ziga xos nutqiy sharoitlar uchun o'rinli hisoblanadi. Ifodalilik, birinchidan, nutq vaziyati bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, tilning tuzilishi bilan bog'liqdir.

Metafora nutqning ifodaliligidagi juda katta ta`sir etadi. Metafora qanchalik yangi bo'lsa, u shunchalik ifodali bo'ladi. Ammo bunda ham me`yor bosh mezon hisoblanadi. Nihoyatda murakkab metaforani o'quvchi tushunmasligi mumkin. Bu muallif fikri o'quvchiga etib bormadi, degan gap.

**Sinekdoxa** ham nutqning ifodaliliginini ta`minlaydi:

Biz ham yo'lida.

Quyosh tuproq vaslidan

Qiziydi orqada, oldimizda yo'l.

Go'zal bo'lib ketmish tuproq aslidan

Urug' sochib o'tgach mehnat nomli qo'l.

(Zulfiya)

Parchaning keyingi ikki misrasida inson mehnati ulug'langan. Yerni aslidan go'zal qilib yuborgan qo'l orqali mehnatkash inson anglashiladi, ya`ni qism orqali butunni ifodalash bilan go'zal ifodalilik yaratilgan. **Metonimiya** narsalarning zamon va makonda o'zaro bog'lanishlariga asoslanadi.

Faqat chust do'ppisi ostidan toshgan

Kumush halqalar oqib tushar yer.

(Zulfiya)

“Kumush halqalar”ning chust do’ppisi ostidan toshib turishi ularning qo’ng’iroq soch o’rnida ishlatalganligini anglashga imkon beradi. “Kumush halqalar” ustida fikr yuritgan o’quvchining xayoliga birdan oqargan jingalak soch, ulardan oqib tushayotgan qaynoq tyer keladi va misralarda shoir ko’zda tutgan fikrni osonlikcha anglab oladi.

Boshqa ifodalilik vositalari shu yuqoridagilarga o’xshaydi.

3-sinf o’qish darslarida berilgan “Tengdoshlar” bo’limi Rauf Tolibning “Biz-istiqlol farzandlarimiz” she’ri bilan boshlanadi.

Biz-istiqlol farzandlarimiz

Rauf Tolib

Tug’ildik biz orzu bo`lib,

Dilga tushgan yog’du bo`lib,

O`zimizni oldik tanib,

Yashaymiz shu yurt deb yonib.

Qaddi mag’rur, tik boshlari,

Biz-istiqlol farzandlari.

Rizq-ro’zimiz to`liq doim,

Yuzlarimiz yoniq doim.

Tillarimiz biyron-biyron,

Orzuyimiz jahon-jahon.

Zamonaning dilbandlari,

Biz-istiqlol farzandlari.

O`g’il qizning asllari,

Biz mard Temur nasllari.

Temur kabi shijoatli,

Ona yurtga muhabbatli,

Bilimdonmiz, ishbilarmon,

Bizlar bilan yashar davron.

Har yurakka ezgu niyat-

El-u yurtga qilish xizmat.<sup>1</sup>

Ushbu she'rni o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi. So'ng o'quvchilarga ifodali o'qitiladi. O'quvchilarga she'rni quruqdan-quruq ifodali o'qimay, mazmunini to'liq o'zlashtirgan holda o'qishga, o'qiganda ham ifodali, tushunib o'qishga yo'naltiriladi.

Ushbu she'r orqali o'quvchilarga mustaqillikdan oldingi yillar, mustaqillik orqali erishilgan natijalar, qo'lga kiritlgan yutuqlar xususida o'quvchilar to'liq ma'lumotga ega bo'ladilar. She'r bilan tanishish esa o'quvchilarda yurtga bo'lgan muhabbat tuyg'usini shakllanishiga olib keladi.

Shuningdek, darslikda yana bolalar yozuvchisi Farhod Musajonovning "Yaxshilik" hikoyasi ham berilgan.

Yaxshilik

(Hikoya)

Farhod Musajonov

Erkin o'rtog'i bilan ko'chada o'ynab yurardi. Shu payt uzoqdan qo'shnilar Pirmat boboning kelayotganini ko'rib qoldi. Cholning qo'lida tunchasi ham bor edi. Erkin hovliqib o'rtog'iga maqtandi:

Hozir-chi, men borib Pirmat bobomlarga yordam beraman. Qo'llaridagi tugunchani ko'tarib kelaman. Meni Pirmat bobo juda yaxshi ko'radilar. "Aqli bola

---

<sup>1</sup> Umarova M., Hakimova Sh. O'qish kitobi: Uchinchi sinf uchun darslik. – Toshkent: Cho'lpon, 2010. – B. 101-102.

ekansan, haqiqiy o`quvchi shunday bo`lishi kerak”, - deb maqtaydilar. Ishonmasang, men bilan yurgin, o`zing ko`rasan.

Bolalarga yaqindashib qolgan Pirmat bobo Erkining so`zlarini eshitdi. Erkin boboning oldiga yugurib bordi va uning qo`lidan tugunchani oldi.

- Bobo, men sizga yordam beraman-a? – deb so`radi Erkin, jo`rttaga Nabi eshitsin uchun baqirib.

- Har doim yordam berasan, - dedi Pirmat bobo miyig’ida kulib.

Erkin oldinda, Pirmat bobo orqada yo`lga tushdilar. Uyiga yetganidan keyin Pirmat bobo Erkining qo`lidan tugunchani oldi. Lekin har galgidek: “Barakalla, rahmat bolam, aqli ekansan”,- deb maqtamadi. Faqat “Rahmat” dedi va engashib Erkining qulog’iga allanimalar deb pichirladi. Keyin uyiga kirib ketdi.

Erkin noqulay ahvolga tushib qoldi. Labini tishlab, chap oyog’i bilan yer chizdi.

- Ha, nega nafasing ichingga tushib ketdi? - deb so`radi Nabi. – Pirmat bobo nima dedilar?

Erkin zo`rg’a boshini ko`tardi.

- Yaxshilik qil, lekin maqtanib, uni yuvib yuborma, dedilar Pirmat bobo,- dedi Erkin.<sup>1</sup>

Ushbu hikoya bilan o`quvchilarni tanishtirib bo`lingach, o`qituvchi tomonidan quyidagi savollarni berish orqali o`quvchilarining hikoyadan olgan taassurotlari o`rganiladi:

1. Erkin o`rtog’iga nima deb maqtandi?
2. Nima uchun Pirmat bobo Erkinga har doimgidek “Barakalla, rahmat bolam, aqli ekansan”,- deb maqtamadi?
3. Pirmat bobo uning qulog’iga nima deb pichirladi?
4. Erkin Pirmat boboning aytgan gaplaridan o`ziga qanday xulosa chiqardi?
5. Siz Erkining o`rnida bo`lganingizda nima qilgan bo`lar edingiz?

---

<sup>1</sup> Umarova M., Hakimova Sh. O`qish kitobi: Uchinchi sinf uchun darslik. – Toshkent: Cho`lpon, 2010. – B. 102-103.

3-sinf o'qish darsligining 7-bo'limi “Tengdoshlar” bo'limi hozirgi yangi darslikda “Orzular qanotida” deb nomlangan bo'lib, ushbu bo'limni o'rganish uchun 10 soat ajratilgan.

2010-yil M.Umarova va Sh.Hakimovalar muallifligida yaratilgan “O'qish kitobi: 3-sinf uchun darslik” da o'quvchilar “Tengdoshlar” bo'limi orqali Rauf Tolibning “Biz-istiqlol farzandlarimiz” she'ri, Farhod Musajonovning “Yaxshilik” hikoyasi, Abdusalom Umarovning “Koinotga sayohat” fantastik ertagi, Yoqutxon Rahimovaning “Kompyuter olami” ilmiy-ommabop maqolasi, Abdusalom Umarovning “Istiqlol” kemasi” hikoyasi, “Sayyoralar” ilmiy-ommabop maqolasi, Mahmud Murodovning “Sohiba kimdan xafa?” hikoyasi, Habib Sa'dullaning “Ikki qiz” she'ri, “Barakalla, bo'tam” ertagi, Maqsud Shayxzodaning “Jigarlarga tilaklarim” she'ri, topishmoq hamda Tolib Yo'ldoshning “To'rtlik”<sup>1</sup> o'rinni o'rnigan.

Ushbu bo'limda o'zbek shoir va yozuvchilarining kichik yoshdag'i tengqurlar hayoti, ularning qiziqishlari, orzu - umidlari, do'stligi, odob - axloqi, kattalar va biri- birlariga yordamlari, ustoz va shogird munosabatlari yoritilgan, adabiy - badiiy asarlari o'rinni o'lgan.

Bilish omillaridan biri bo'lgan idrok kichik yoshdag'i bolalarda o'ziga xos xususiyatiga ko'ra aniqligi, raxonligi va o'tkirligi bilan boshqalardan keskin farq qiladi. 3-sinf o'qish darsligida berilgan “Tengdoshlar” bo'limidagi har xil janrdagi asarlarni yaxlit anglashi uchun uni ongli ravishda idrok qilish, ya'ni:

- analiz va sintez;
- qiyoslash;
- umumlashtirish;
- xulosa chiqarish kabi fikriy mezonlardan samarali foydalanishlari lozim bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Umarova M., Hakimova Sh. O'qish kitobi: Uchinchi sinf uchun darslik. – Toshkent: Cho'lpon, 2010. – 224.

“Tengdoshlar” bo`limida berilgan asarlarni tahlil qilish davomida asarlarning g’oyaviy mazmunini yoritadigan obrazlilikka, badiiy nafosatga, tarbiyaviy-estetik qimmatga ahamiyat bermog’i muhimdir. O`qituvchi bola ruhiyatini to`g’ri anglagan me`mor sifatida kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning iqtidoriga mos keladigan usul, interaktiv-o`zaro hamkorlikdagi pedagogik texnologiya asosida darsni tashikllashtirishi maqsadga muvofiqdir.

Umuman, boshlang’ich sinf darslarida berilgan har bir bo`limdagi asarlarni o`quvchilarga tanishtirish orqali o`quvchilarda badiiy asar xususidaga tasavvurlari kengaytiriladi. Ular orqali ona yurtga bo`lgan muhabbat tuyg’usi shakllantiriladi.

Umuman, “Tengdoshlar” bo`limida berilgan har xil janrdagi asarlar orqali bolalar o`zlari uchun katta taassurot oladilar. Bu asarlarning bolalar tarbiyasi, o`qishi jarayonida ahamiyati kattadir. Shuning uchun ularni dars jarayonida yoki sinfdan tashqari o`qish jarayonida o`quvchilarga yaqindan tanishtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Xullas, boshlang’ich sinf o`qish darsligiga kiritilgan “Tengdoshlar” bo`limi bilan o`quvchilarni tanishtirish jarayonida biz ushbu bobimizda ta`kidlab o`tganlarimiz xususida ham imkon qadar ma`lumot berib o`tilsa, bolalarning jahon bolalar adabiyoti xususidagi bilim darajalari kengayadi, bu xususida ko`nikma va malaka hosil qiladilar, tafakkur doiralari esa yanada kengayadi.

## **II BOB**

### **3-SINF O`QISH DARSLARIDA “TENGDOSHLAR” MAVZUSINI O`RGANISH DARSLARI VA ULARNI TASHKIL ETISH**

#### **2.1. Yangi pedagogik texnologiyadan foydalanim 3-sinf o`qish darslarida “Tengdoshlar” mavzusini o`rganish.**

Boshlang'ich sinfning 3sinf o`qish darslari orqali o`quvchilar quyidagilar xususida to`liq tasavvurga ega bo`ladilar:

- yozuvchilarning ismi-sharifi, asarlarining nomlari haqida to'laroq tushuncha hosil qilish;
- badiiy asarlarni sharhli, ifodali o`qish;
- asar mazmuni va voqealari o`rtasidagi bog'lanishni, qahramonlarning fe'l-atvorini aniqlash, qiyosiy tavsiflash;
- o'qigan asarlari yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini og'zaki va yozma tarzda izchil ifodalash;
- so'z boyligini oshira borish va nutqida faol qoilash;
- o'qigan asarlari yuzasidan mustaqil reja tuzish;
- badiiy asarlarni estetik tahlil qilish;
- o'qigan asarlari yuzasidan savol-topshiriqlar tuzish;
- nasriy asar mazmunini to`liq, qisqartirib, shaxsini o'zgartirib hikoyalash;
- badiiy asarlarni o'zaro qiyoslab, tegishli xulosalar chiqarish.<sup>1</sup>

#### **3- sinf o`quvchisining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar:**

##### **Bilim:**

- hikoya, she'r, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, latifa, rivoyat, hikoyat, masal, ibora, afsonani janriga ko'ra farqlay olish;
- badiiy asar mazmuniga munosabat bildira olish;

##### **Ko'nikma:**

---

<sup>1</sup> Uzviylashtirilgan Davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi.- Toshkent, 2010.- B. 39.

- matndagi so'zlarning ma'nolarini izohlay olish;
- maktab kutubxonasidagi kitoblardan unumli foydalana bilish;
- asardagi qahramonlar haqida kichik hikoya tuza olish;
- bolalar yozuvchilarining turli janrdagi asarlarini mustaqil ravishda
- tanlab o'qiy olish.

### **Malaka:**

- ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, xalq qo'shiqlari, qissalardan parchalarni to'g'ri, ongli, ifodali, sidirg'a o'qish;
  - o'qilgan badiiy asarga reja tuzish;
  - asar mazmunini qayta hikoyalashda o'xshatish;
  - asar mazmunini qisqartirib, qayta hikoyalash;
  - o'qigan asari yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini erkin bildirish;
  - bir daqiqada 60-70 ta so'z o'qish;
  - o'quv yili yakunida 15 ta she'rni yoddan ifodali aytib berish;
- mustaqil o'qish uchun bir mavzu doirasida bir nechta asar tanlay bilish va ifodali o'qish;
  - o'qilgan asar asosida kichik sahnalar qo'yish.<sup>1</sup>

Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarni o'rta ta'lim bosqichiga tayyorlash bilan birga, ularda o'qish, o'rganish, tashabbus ko'rsatish, mustaqil faoliyatni egallash kabi sifatlarni rivojlantirish kundalik vazifalarimizdan biridir. Bu ishda yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish zarur.

Texnologiya nima? Texnologiya tuzilma, didaktik maqsad, vazifalarni belgilab olishdan boshlanib, ta'lim jarayonini bir butun yaxlitlikka yo'nalishini nazarda tutadi.

O'qish darslarida joriy etiladigan texnologiya fanlar orasidagi bog'liqlikni ta'minlash, ortiqcha qiyinchiliklarni bartaraf etish, ona tili, atrofimizdagi olam, matematika, ashula, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya kabi fanlarni integratsiyalashga qaratiladi.

<sup>1</sup> Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi.- Toshkent, 2010.- B. 41.

Yangi pedagogik texnologiya, avvalo, shaxs tarbiyasiga qaratilgan bo`lib, uning ma`naviy, ma`rifiy tomondan to`laqonli rivojlanishini ta`minlash zarur.

Barcha yaxshi ishlar milliy an`analar, urf-odatlar ruhida amalga oshishi kerak. Bolalarni ezgulikka yetaklash o`qituvchining pedagogik mahoratiga ko`p jihatdan bog`liq. Buyuk alloma, inson ruhiyatining muhandisi Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida shunday fikrni bayon qilgan: «Tarbiyachining barcha xatti-harakatlari ezgulikdan iborat bo`lmog`i lozim. Ezgulik bola ruhiyatiga ta`sir etib, u yoshlikdan faqat yaxshi ishlar ijodkori bo`lib qoladi.

Buning uchun o`qituvchi yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llashga kirishishdan oldin uni loyihalab olishi kerak.

Maqsad, vazifalarni rejalab, so`ng dars mavzusi asosida interfaol usullardan birini qo`llashi, keyingi darslarda esa ularni takomillashtirishi, o`quvchilarda bu vazifalarni bajarishga ko`nikma hosil qilishi kerak.

Test savollari tizimini avvaldan tuzish, uni maqsadga qarab o`quvchilar tomonidan bajarilishini tashkil etishga qaratilishi zarur.

Atrof-muhit bilan tanishtirish o`qish darslari bilan uzviy bog`lanadi. Sayr-sayohatlarga borish va ko`rganlarini o`qish darslarida gapirib berish, esda qolganlarini yozish, rasmda ifodalash o`quvchi uchun eng qiziqarli ishlardan biri bo`lib, unga har doim yangi-yangi shakl berish lozim.

Bolani zukkolikka, topqirlikka, hozirjavoblikka tayyorlash bu yangi pedagogik texnologiyaning bir ko`rinishidir.

Raqobat qilish texnologiyasi. Kichik yoshdan boshlab bola o`z-o`zini boshqara bilishga intilib, maqsadga yetish yo`llarini izlashga o`rgatadi.

Faraz qila bilishga o`rgatish. Bu usul bolaning tafakkur faoliyatini tez sur`atlar bilan rivojlanishini ta`minlaydi.

Yurtimizda kattalar adabiyotining ajralmas bir bo`lagi bo`lgan bolalar adabiyotining rivojlanishi, har tomonlama boyib borishida tarjima asarlarining o`rni, ahamiyati katta. Negaki, tarjima asarlarini o`qigan har bir yosh kitobxonning dunyo haqidagi fikri, tasavvuri boyib, o`sha xalqlarning yashash sharoitlari, urf-odatlari, mehnatlari, orzu-intilishlari bilan oshno bo`ladilar.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchiga yuqorida nomlari aytib o'tilgan mavzularni qiziqarli va tushunarli tarzda tashkil etib olib borishda pedagogik texnologiyaning o'rni kattadir.

O'quvchi faoliyatini dars jarayonlarida oshirishda pedagogik texnologiyalarning quyidagi turlaridan foydalanish o'z samarasini beradi:

- 1) Muammoli o'qitish turi; 2) Mujassamlashtirilgan ta'lim; 3) Modulli ta'lim;
- 4) Rivojlantiruvchi ta'lim; 5) Differensial ta'lim; 6) Faol o'qitish (majmuaviy ta'lim);
- 7) O'yin texnologiyalari.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvlarni talab etadi.

Shu maqsaddan kelib chitqqan holda biz yuqorida aytib o'tilgan pedagogik texnologiyaning mujassamlashtirilgan ta'lim turidan foydalanib “Tengdoshlar” bo'limiga kiritilgan har xil janrdagi asarlarni o'quvchilarga qay tarzda tushuntirish xususida keng to'xtalishni o'rini deb bildik.

Mujassamlashtirilgan ta'lim turida mavzu o'quvchilarga keng qamrovda tushuntiriladi. Bu ta'limning maqsadi esa shaxsning his qilish xususiyatlariga maksimal darajada yaqinlashtirilgan ta'lim jarayoni tuzilmasini yaratishdan iboratdir. Buning uchun o'qituvchi ham o'quvchi o'rniga o'zini qo'yib ko'rishi, uningdek his qilishi kerak bo'ladi. Shundagina o'quvchiga to'g'ri topshiriq berishi, bu orqali mavzuni ularni to'laqonli o'zlashtirishlariga ega bo'lish mumkin<sup>1</sup>

Mujassamlashtirilgan ta'limning mohiyati esa mashg'ulotlarni bloklarga biriktirish hisobigi fanlarni chuqur o'zlashtirishga erishishdan iborat.

---

<sup>1</sup> Xojimatova Y., Mamanazarova R. Faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi yondashuvlar pedagogik texnologiyalarning muhim vositasidir : Metodik tavsiya.- Namangan, 2010.- B. 42-46.

Masalan, “Barakalla, bo’tam” ertagi matnini o’quvchilar o’qib tanishganlaridan so`ng ularni o’zlari qiziqqan fanlari bo’yicha guruhlarga bo’lib chiqish mumkin.

1-guruh o’qish, 2-guruh matematika, 3-guruh tabiatshunoslik, 4-guruh ona tili fanlari bo’yicha guruhlarga ajratilishi mumkin. Albatta, o’quvchilarning har biridan o’qituvchi ularning qaysi fanni ko’proq yaxshi ko’rishini so’rash hisobiga shu kabi guruhlarga ajratildi. Mujassamlashtirilgan ta’limda o’quvchilarga individual, juftlik va guruh tarzida ham yangi mavzuni tushuntirish mumkin.

Xullas, fanlar bo’yicha guruhlarga bo’lingan o’quvchilarga o’qituvchi tomonidan topshiriq beriladi.

1-“O’qish” guruhiiga mavzuni badiiylashtirgan holda talqin qilib berish.

2- “Matematika” guruhiiga asarni matematik atamalar asosida boyitib bayon etib berish.

3- “Tabiatshunoslik” guruhiiga ertakni tabiat bilan bog’lab yoritib berish.

4- “Ona tili” guruhiiga ertakni til qonun-qoidalariga qat’iy rioya qilgan holda tasvirlab berish kabi topshiriqlar beriladi.

Har bir guruh uchun vaqt ajratiladi.

Bu matn orqali o’quvchilar quyidagi xulosalarni chiqarishlari mumkin:

1. Har doim o’zidan kattalarga salom berish kerak.

2. Hech qachon o’zgalardan yordamni ayamaslik kerak.

3. Bilmagan narsani qilib ko’rmaslik kerak, aks holda qizchaning onasi holiga tushishi mumkin.

Mukammalliikka erishish yo’lida yaratilgan 3-sinf “O’qish kitobi”<sup>1</sup> darsligi hamda “Uchinchi sinfda o’qish darslari” metodik qo’llanmada ta’lim tizimi oldiga qo’yilgan talablar o’zining to’la ifodasini topgan bo’lib, o’quvchilar uchun ham, o’qituvchilar uchun ham muhim dasturilamal vazifasini bajaradi. Mustaqillik yillarida

---

<sup>1</sup> Umarova M., Hakimova Sh. O’qish kitobi: Uchinchi sinf uchun darslik. – Toshkent: Cho’lpon, 2010. – 224.

amalga oshirilgan tadbirlar natijasi o`laroq o`qituvchilar faoliyatida ijobjiy o`zgarishlar sodir bo`ldi: o`qituvchilarning amaliy faoliyatida pedagogik texnologiya o`zining munosib o`rnini egallay boshladi, ta`lim jarayoniga interfaol usullar kirib keldi, ayrim o`qituvchilar tajribasida o`quv fanlarini o`zlashtirish muammosi astasekin bo`lsa-da ko`zga tashlana boshladi.

Bugungi kunda zamonaviy ta`limni tashkil etishga qo`yiladigan muhim talabalardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o`quvchilarga yetkazib berish, ularda ma`lum faoliyat yuzasidan ko`nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, ta`lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko`nikma va malakalar daradsini baholash o`qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta`lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bunguni kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to`plangan bo`lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Bugungi kunda eng ko`p qo`llanadigan metodlardan biri “Aqliy hujum” metodidir.

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo`llanadigan metod sanalib, u mashg`ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o`z tasavvurlari va g`oyalardan ijobjiy foydalanish borasida ma`lum ko`nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag`batlaniradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg`ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug`iladi. “ayliy hujum” metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma`lum qadriyatlarni aniqlash, ayni vaqtda ularga muqobil bo`lgan g`oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

3-sinf o`qish darslarida “Tengdoshlar” bo`lmiga kirgan har xil janrdagi asarlarni o`rganish darslari jarayonida “Aqliy hujum” metodidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi. Ushbu qoidalar quyidagilar:

1. Dars mashg'uloti ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish.

2. Har bir ta`lim oluvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g'oyalar miqdori rag'Obatlantirilib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasida eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi-yangi fikr yoki g'oyalarning tug'ilishiga olib keladi.

3. Har bir ta`lim oluvchi to`zining shaxsiy fikr yoki g'oyalariga asoslanishi hamda ularni o`zlashtirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr (g'oya) larni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o`zgartirish ilmiy asoslangan fikr (g'oya)larning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

4. Mashg'ulot jarayonida ta`lim oluvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablari asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi. Agarda ularning fikr (g'oya)lari baholanib boriladigan bo`lsa, ta`lim oluvchilar o`z diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Mazkur metodni qo'llashdan asosiy maqsad ta`lim oluvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlantirish ekanligini e'tibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

“Tengdoshlar” bo`lmini o`rganish darslari jarayonida ushbu metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

1. Mashg'ulot ishtirokchilarining o`zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish.

2. G'oyalarini yozib borish uchun yozuv taxtasi yoki varaqlarini tayyorlab qo'yish.

3. Muammo (yoki mavzu) ni aniqlash.

4. Mashg'ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo`lgan shartlarni belgilash. Shartlar quyidagilardan iborat bo`lishi mumkin:

a) ta`lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har qanday g'oya baholanmaydi;

b) ta'lim oluvchilarning mustaqil fikr yuritishlari, shaxsiy fikrlarini ilgari surishlari uchun qulay muhit yaratiladi;

v) g'oyalarning turlicha va ko`p miqdorda bo`lishiga ahamiyat qaratiladi;

s) boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni yodda saqlash, ularning fikrlariga tayangan holda yangi fikrlarni bildirish, bildirilgan fikrlar asosida muayyan xulosalarga kelish kabi harakatlarning ta'lim oluvchilar tomonidan sodir etilishiga erishish.

5. Bildirilayotgan g'oyalarni ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish.

6. Muayyan qog'oz varaqlari g'oya (yoki fikr)lar bilan to`lgandan so`ng ularni yozuv taxtasiga osib qo`yish.

7. Bildirilgan fikrlarni yangi g'oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash.

8. Boshqalar tomonidan bildirilgan fikr (g'oya)lar ustidan qulish, ularga nisbatan kinoyali sharhlar bildirilishiga yo'l qo`ymaslik.

9. Ta`lim oluvchilar tomonidan yangi g'oyalar bildirilishi davom etayotgan ekan, muammoning yagona to`g'ri yechimini e`lon qilishga shoshilmaslik<sup>1</sup>.

Bu kabi metodlarni qo`llab olib borilgan dars o`z navbatida qiziqarli va o`quvchilarni dars mashg`ulotni to`liq o`zlashtirishiga olib keladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda yurtimizda boshlang`ich ta`lim jarayoni tubdan isloh qilinib, ilg`or pedagogik texnologiyalar, ta`limning yangi shakl va uslublari, o`quv dasturlari amaliyatga joriy etilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, boshlang`ich sinf o`quvchilarining qunt va tirishqoqlik bilan o`qishlari, o`zlarining xatti-harakatlarining o`quv mehnati talabalarini bajarishga qaratish, istiqboldagi o`quv maqsadlarini mustaqil belgilashga, muayyan maqsadga erishish uchun zaruriy vositalarni ongli tanlashga, erishgan natijalarni xolisona baholashga o`rgatish muhim ahamiyatga ega.

---

<sup>1</sup> WWW. referat. uz.

Demak, pedagogik texnologiyaning mujassamlashtirilgan ta`lim turi orqali ham o`quvchilarga yangi mavzuni qiziqarli tarzda tashkil etib yetkazish mumkin. Shuning uchun doim bu kabi ta`lim turlaridan o`z o`rnida foydalanib borish maqsadga muvofiq bo`ladi.

## **2.2. 3-sinf o`qish darslarida “Tengdoshlar” mavzusini o`rganish darsining metodik ishlanmasi.**

3-sinf “O`qish kitobi”ga kiritilgan mavzularni o`quvchilarga o`rgatish jarayonida bugungi kunda ta`lim jarayonida keng qo`llanayotgan interfaol usullardan keng foydalangan holda darslarni tashkil etib olib borish kerak. Biz ishimizning ushbu qismida interfaol usullardan foydalangan holda olib borilgan darslar xususida to`xtalishni o`rinli deb bildik. Buning uchun quyidagi tarzda dars ishlanmalarini berib o`tdik:

Mavzu: Saranjom-sarishtalik

Dars materiallari: M.Murodovning “Sohiba kimdan xafa?” hikoyasi va mavzuga oid rasmlar. Test topshiriqlari.

Darsning maqsadlari:

Ta`limiy maqsad: “Sohiba kimdan xafa?” hikoyasini o`qish borasida o`quvchilarni saranjom-sarishtalikka o`rgatish. Kattalarning aytganlarini bajarish yaxshi xulq ekanligini o`quvchilarga singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o`quvchilarni badiiy ifodalar “ko`zdan kechirib”, “kiyinishga kirishdik”, “yosh qalqidi” bilan tanishtirish.

Dars metodi: tushuntirish, suhbat, mustaqil ish metodi, aqliy hujum.

Darsning borishi:

1. O`tgan darsda o`tilgan “Sayyoralar”ni o`quvchilarga o`qitish va matnga oid berilgan savol-topshiriqlarga javob olish.

Shundan so`ng o`qituvchi o`tgan darsda o`tilgan “Sayyoralar” nomli ilmiy-ommabop matnni mustahkamlash uchun test topshiriqlariga javob oladi va quyidagicha savol-javob o`tkaziladi:

- Siz qaysi sayyorada yashaysiz? (Javob:-Biz uchinchi Yer sayyorasida yashaymiz).

- Uchinchi Yer sayyorasida yashashingizni qayerdan bildingiz? (Javob: - Biz uchinchi Yer sayyorasida yashashimizni “Sayyoralar” ni o`qib bilib oldik).

- To`g’ri.

2. Yangi mavzu: Mahmud Murodovning “Sohiba kimdan xafa?” hikoyasini o`qish.

3. Hikoyani o`qishga tayyorlash.

O`qituvchi sinf ko`chma yozuv taxtasiga oldindan yozib qo`yilgan quyidagi maqollarni ochadi:

1. “Qari bilganni pari bilmas”.

2. O`zingdan kattaning aytganiga quloq sol!”

O`quvchilardan ularni o`qib, mazmunini aytish so`raladi.

4. Asar bilan tanishtirish.

O`quvchilarga hikoyani ichda o`qish topshiriladi. Topshiriq bajarilgach, hikoya o`quvchilarga navbat bilan ifodali o`qitiladi, o`qigani so`zlatiladi.

5. Lug’at ustida ishslash.

gavjum- odamlar ko`p joy;

charos-uzumning turi. Yumaloq qora uzum.

Charos ko`zlarda-yumaloq qora qo`zlarda.

6. Badiiy ifoadalar ustida ishslash:

“Ko`zdan kechirib” (qarab), “kiyinishga kirishdi” (kiyina boshladi), “yosh qalqidi” (yosh keldi) so`z birikmalarini o`quvchilar qanday tushungani, o`rniga qanday so`z ishlatish mumkinligini quyidagi savol-javob orqali aniqlanadi:

- “Uning charos ko`zlarida yosh qalqidi” gapini qanday tushundingiz? (Javob: - Uning charos ko`zlariga yosh keldi).

- Charos so`zi necha xil ma`noda qo`llanadi? Asarda charos so`zi qanday ma`noda ishlatilgan?

(Javob: - Charos so`zi ikki xil ma`noda qo`llangan. Asarda charos so`zi ko`chma ma`noda ishlatilgan).

7. O`qituvchilarning hikoya yuzasidan tushunchalari suhbat orqali aniqlanadi.

1-o`quvchi: - Asar kim haqida hikoya qiladi?

(Javob: - Asar Sohiba haqida hikoya qiladi).

2-o`quvchi: - Habiba opa Sohibaga nima deb nasihat qilardi? Nima uchun?

(Javob: - Sohiba kiyimlarini har yerga tashlab qo`yardi. Habiba opa Sohibaga kiyimlarini qoziqqa ilib qo`yishni nasihat qilardi).

3-o`quvchi: - Sohibaning ko`ylagi qayerdan topildi? Ko`ylak qay ahqolda edi?

(Javob: - Sohibaning ko`ylagi karavot tagidan topildi. U g'ijim bo`lib ketgandi).

O`qituvchi: - Sohibaning shundoq ketaveraman, -deb aytishga sabab nima?

(Javob: - Onasi: - Qizim, dugonangning tug'ilgan kuniga g'ijimlangan ko`ylakda borasanmi? Kel, dazmollab beray, - dedi. Sohiba: - SHundoq ketaveraman, - deb onasining aytganini qilmadi).

4-o`quvchi: -Qizlar yaxshi kiyinishgan? Sohiba-chi?

(Javob: - Sohiba Saodatga ko`ylaging chiroyli ekan, -dedi.

- Seniki ham yomon emas, faqat dazmullanmagan,- dedi Saodat. Sohiba qizarib ketdi).

Javoblar muhokama qilinadi.

8. Hikoyani turli topshiriqlar asosida qayta o`qish.

O`quvchilar hikoyaning birinchi, ikkinchi bo`limini ichda o`qiydilar. O`qituvchi hamkorligida bo`limlarni qismlarga bo`ladilar va ularga sarlavha topadilar. Sarlavhalardan eng ma`qullari tanlab olinadi hamda o`qituvchi o`qituvchi tomonidan yozuv taxtasiga yoziladi.

Natijada quyidagi reja yuzaga keladi:

Reja:

1. Peshin vaqtি.
2. Ona nasihatи.
3. Sohiba unamadi.
4. Sohiba mehmonda.
5. Pushaymon bo`ldi.

9. O`quvchilar reja asosida matnni to`liq qayta hikoya qiladilar.

10. Quyidagi topshiriqlar asosida tanlab o`qish:

- Sohibaning onasi gapiga qulqoq solmaganini matndagi qaysi gapdan bilish mumkin? O'qib bering.

(Javob: - E-e, shundoq ketaveraman, -deya chopib chiqib ketdi).

- Yozuvchining aytmoqchi bo`lgan fikri hikoyadagi qaysi gapda o`z ifodasini topgan? O'qib bering.

- Hammasiga o`zim sababchi, nega men oyijonim aytganlarida ko`nmadim?

### 11. Aqliy hujum.

- Sohibani qanday qiz deb o`ylaysiz?

(Javob: - Sohiba shoshqaloq, tartibsiz, kattalarning aytganini qilmaydi, sochlarini to`zg'itib yuradi. O`zining qiliqlaridan pushaymon bo`lgan qiz).

- Siz nima deb o`ylaysiz? Sohiba yaxshi xulqli bo`ladimi, yo`qmi?

(Javob: - Sohiba o`zgaradi. Xulqi yaxshi bo`ladi. Onasining aytganlarini qiladigan bo`ladi).

### 12. Matnga oid savol va topshiriqlar ustida ishslash.

13. Darsda o`rganilganlarni umumlashtirish va yakunlash uchun savol-javoblar:

Savol: - Bugungi darsda nimalarni bilib oldingiz?

Javob: -Bugungi darsda badiiy ifodalar bilan tanishdik, asar ishtirokchilariga baho berishni o`rgandik.

- Kimning asarini o`qidik?
- Qanday asarni o`qidik?
- O`qituvchi o`quvchilar javoblarini umumlashtiradi.

14. Dars yakunlanadi va uyga vazifa: “Sohiba kimdan xafa?” hikoyasini o`qish. Reja asosida to`liq hikoyalashga tayyorlanish. Sohibaning mehmonga borgan holati rasmini chizish.

15. Rag`batlantirish. Darsda faol qatnashgan o`quvchilar rag`batlantiriladi.

Xullas, 3-sinf o`qish darsligida berilgan “Tengdoshlar” bo`limida berilgan mavzularni bolalarning yoshiga va saviyasiga mos tarzda tashkil etib, tushuntirilsa, o`quvchilarga mazkur bo`lim mavzulariga bo`lgan qiziqish ortadi, erkin va mustaqil fikrlash ko`nikmasi shakllanadi. Shuning uchun har bir darsni iloji boricha

qiziqarli tarzda, bir-birini takrorlamagan holda tashkil etib olib borish maqsadga muvofiq bo`ladi.

## **TAJRIBA-SINOV ISHI**

Ushbu “O`qish darslarida “Tengdoshlar” mavzusini o`rganish metodikasi (3-sinf)” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimiz orqali bugungi kunda ta`lim jarayonidagi muammolar, ularning kelib chiqish sabablari, bartaraf etish yo`llari va ta`limga oid innovatsion texnologiyalar, ularning ta`lim tizimidagi o`rni haqida baholi qudrat ma`lumot berishga, ularning muammolarini hal etishga urinib ko`rdik. Ta`limda uchragan va uchrashi mvmkin bo`lgan pedagogik muammolarni o`z qarashimiz bilan hal etishga urindik, ularning yangi mukammal yo`llarini topishga harakat qildik. Biz o`z fikrimizni isbotlash uchun tajriba-sinov ishini olib bordik. Bu tajriba-sinov ishimiz, asosan, Namangan viloyati Namangan shahridagi 7-maktabda olib borildi. Dastlab biz o`ylagan muammolarni kuzatdik, ularni kamchilik deb hisoblagan, o`ylaganlarimizga ishonch hosil qilish uchun Namangan viloyati Namangan shahrigi 7-maktabning 3-“B” va 3-“V” sinflarini oldik. Mavzu maktab pedagogik Kengashida ko`rib chiqildi va ma`qullandı. Tajriba uchun mas`ul o`qituvchilar ham biriktirildi. Rejalar ishlab chiqildi. Biz ishni dastlab mavzu haqida o`quvchilarga tushuncha berishdan boshladik. Ularning tushunchalari boyitildi. Bu haqda savol-javoblar o`tkazildi. Ayrim o`qituvchilarining bu haqdagi fikr-mulohazalari ham atroflicha tahlil qilib o`tildi. Maktabda ona tili darslarining holatlari chuqur tahlil qilib o`tildi. Ayrim darslar kuzatildi va bu haqda fikrlar bildirildi. Boshlang`ich sinf ona tili darslarida o`quvchilarini tinish belgilari bilan tanishtirish yo`llari masalasi keng tushuntirildi. Yig`ilishlar o`tkazildi. Yig`ilishda mavzuga bog`lab savol-javoblar o`tkazildi. Quyidagi savollar o`rtaga tashlandi:

1. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini tinish belgilari bilan tanishtirishda nimalarga e`tibor qaratiladi?
2. Siz aynan shu o`rganilayotgan masalaga qanday munosabatdasiz?
3. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini tinish belgilari bilan tanishtirishni qay tarzda tashkil etib o`tilishi kerak?

4. Siz avval aynan shu masalaga oid darslarga e'tibor bergenmisiz?
  5. Sizni yana ham qiziqtirgan muammolar bormi? Ularni qanday hal qilmoqchisiz?
  6. Sizni biz tadqiq etayotgan mavzu qiziqtiradimi?
  7. Siz yana qanday muammolarni hal etishga qiziqassiz?
  8. Shu mavzu haqida dastlab uslubiy qo'llanmalar, uslubiy ko'rsatmalar bilan tanishganmisiz?
  9. Viloyat va tuman seminarlarida bizning mavzu haqida tushuncha olganmisiz?
  10. Matbuotda biror maqola o'qiganmisiz?
- Bu kabi savollar yozilgan so'rovnomalar fan o'qituvchilariga tarqatilganida, ular bu savolga o'zlarining javoblarini berdilar va fikr-mulohazalarini bildirdilar.
- 58% o'qituvchilar bizning mavzuimizga juda qiziqishlarini bildirdilar.
- 32% o'qituvchilar mavzuga qo'shimcha fikr bildirib, yana ham uni takomillashtirishni taklif qildilar.
- 10% o'qituvchilar bunda betaraf qoldilar.

Tajriba –sinov ishlarini biz uch bosqichda olib bordik.

“O'qish darslarida “Tengdoshlar” mavzusini o'rganish metodikasi (3-sinf)” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimizni yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Namangan viloyati Namangan shahridagi 7-maktabda 2017-yilning 6-mart oyidan 6-may oyiiga qadar 3 bosqichda olib bordik.

I bosqich. Kuzatuv bosqichi.


Maqsad va vazifalar: O'qituvchi va o'quvchilar jamoasi bilan tanishib, 3-sinf o'qish darslarini kuzatish, ta'lim jarayonida bitiruv malakavi ishi mavzusiga alohida e'tiborni qaratish.

Men tajriba ishimning kuzatuv bosqichida 3-“B” va 3-“V” sinflarni kuzatdim. Sinf o'quvchilari haqida to'liq ma'lumot oldim. Ular bilan tanishib olgach, ona tili darslarini kuzatdim. Natijani bilish uchun o'quvchilarni “Tengdoshlar” bo'lmida berilgan asarlar bilan yaqindan tanishtirish yo'llarini aniqlash maqsadida matnlarni o'qitdim.


Bular orqali o'quvchilarning bilim darajasini aniqlab oldim. Buning uchun yuqorida aytib o'tilgan topshiriqlarni amalga oshirdim. 3-“B” sinfda 35 ta, 3-“V” sinfda 37 ta o'quvchi qatnashdi va natija quyidagicha baholandi:

### TAJRIBADAN OLDINGI NATIJALAR

3-“A” sinf



3-“V” sinf



Sinf	O'quvchilar	Qatnashdi
3- “B”	35	35
3-“V”	37	37

O'quvchilarning o'zlashtirish natijalari quyidagi tarzda boholandilar:

“5” ball		“4” ball		“3” ball		“2” ball	
nafar	%	nafar	%	nafar	%	nafar	%
8	23	10	29	12	34	5	14
ta	%	ta	%	ta	%	ta	%
7	19	10	27	13	35	7	19

35-100 %

20-X

$$35X=18 * 100$$

$$X= 18*100:35$$

$$X=51 \%$$

37-100%

21-X

$$37X=17*100$$

$$X=17*100:37$$

$$X=46 \%$$

Nazorat sinfida o'quvchilarning o'zlashtirish natijalari quyidagi ko'rsatkichni ko'rsatgani aniqlandi:

"5" ball 8 ta;

"4" ball 10 ta;

"3" ball 12 ta;

"2" ball 5 ta

Tajriba sinfida esa o'quvchilarning o'zlashtirish natijalari quyidagi ko'rsatkichlarni ko'rsatgani aniqlandi:

"5" ball 7 ta;

"4" ball 10 ta;

"3" ball 13 ta;

"2" ball 7 ta.

Bu ma'lumotlardan ko'rindiki, mavzu haqida o'quvchilar umumiylashchaga ega ekanlar.

Shunday qilib, ushbu natijalardan har ikkala sinfning o'qish darslarida o'quvchilarni bo'lim materiallari, xususan 3-sinf o'qish darslarida "Tengdoshlar" bo'limiga kiritilgan har xil janrdagi asarlar bilan tanishtirish bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlarini, bilimlarini bilib oldik. Ushbu natjalarni olgandan so'ng sinfni yanada keng bilib oldik.

So'ng II bosqichga o'tdik. Unda men asosan, 3-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni "Tengdoshlar" bo'lmi bilan tanishtirishga o'rgatish bo'yicha bilim va malakalarini kengaytirishga harakat qildim.

II bosqich rivojlantiruvchi bosqich.

Maqsad va vazifalar: Bitiruv malakaviy ishi mavzusiga oid dars ishlanmalari orqali darsning samaradorligini oshirish, o'quvchilarning "Tengdoshlar" bo'limida berilgan har xil janrdagi asarlar bilan tanishtirish, bolalarda bu mavzularga bo'lgan qiziqishni oshirish.

Biz tajriba ishimizda bir necha dars ishlanmalaridan foydalandik. Shu dars ishlanmalaridan foydalanib darsni o'tib berdik. So'ng bu darslarni kuzatdik va naitijani oldik: O'quvchilardan darsga tayyorgarlik darajalari so'raldi.

Shunday qilib, biz mavzu haqida tajriba sinfimizda ishni olib borishni boshladik. Buning uchun reja tuzib chiqildi. Shu reja asosida mukammal ish olib borishga harakat qildik. Avval darslarni kuzatdik. Qilinadigan ishlarni belgiladik. Ayrimlaridan voz kechdik. O'quvchilarni zeriktiradigan, o'rinalar olib tashlandi. Darslar asosan, savol-javob, bahs-munozara, mashq matnlari va ulardagi gaplarni tahlil qilishi tarzida o'tkazila boshlandi.

Bu kabi ishlar kelajakda o'tkaziladigan darslarni qanday o'tkazish kerakligini belgilab berdi. Shu sababli, biz ishimizni asosan, o'quvchilarining takliflaridan kelib chiqib belgiladik.

Avval biz o'quvchilarni darslik bilan yaqindan tanishtirib oldik. 3-sinf o'qish darslarida “Tengdoshlar” bo'limi bilan tanishtirish yuzasidan o'z fikr-mulohazalarimizni bildirdik. O'quvchilarining fikrlarini ham bilib oldik. Ularni o'rgandik, saraladik. Shular asosida ularni ifodali o'qishga o'rgatish darslarini uyushtirdik. Bir nechta namunaviy darslarni tashkil etdik. Mavzuga bog'lab darslarni o'tib berdik. O'quvchilarining qiziqishi juda oshib ketdi. Chunki tashkil qilingan darslar o'quvchilarni zeriktirishga yo'l qo'ymadid. Ularda mustaqil va erkin fikr yuritishni, mavzuga oid gaplarni bemalol tahlil qilishni ta'minladi. Bugungi ta'limning asosiy shartlaridan biri ham o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, bo'lim materiallarini to'liq o'zlashtirishga erishishdir..

Dunyo bo'yicha ta'lim jarayoniga e'tibor juda kuchayib ketmoqda. Biz o'qituvchilar ularni to'g'ri tushungan holda darslarda o'quvchi mustaqilligini ta'minlash, ularda mustaqil ishslash, ona tili darslarida o'quvchilarni “Tengdoshlar” bo'limi haqidagi tasavvurlarini, bilim darajalarini o'stirishga doimo diqqatni qaratmog'imiz kerak bo'ladi.

Tajriba sinflarda 3-sinf ona tili darslarida o'quvchilarni “Tengdoshlar” bo'limi bilan tanishtirish bo'yicha ish olib borildi. Musobaqa darslari o'tkazildi. Darslarda o'quvchilar rag'batlantirildi. Biz darslarda, asosan, o'quvchilarni rag'batlantirishga e'tiborni qaratdik. Bularidan tashqari uyga berilgan vazifalarga ham e'tibor berdik. Chunki bu uyga berilgan vazifalarni bajarishlari orqali o'quvchilarining mavzuni qay-

tarzda tushunganliklarini ochiq ko`rish mumkin. Shu sababli qilingan nazorat ishlarida tajriba sinflarida natija yuqori ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Ta`lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning muhimligi va afzallikkari haqida to`xtalib o`tamiz.

Pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, bunda ta`lim jarayonini rejalashtirish, tashxis qilish, natijalash, tuzatish kiritish imkoniyatlari mavjud. Bunda ta`limda kutilgan natijalarga erishiladi, vaqt tejaladi, bu esa pedagogik texnologiyaning samaradorligi demakdir.

Pedagogik texnologiyaning tasdiqlanuvchanligi – ishlangan model boshqa pedagoglar qo`llaganda ham xuddi shunday samara berishi kerakligini bildiradi. Bir so`z bilan aytganda, ta`lim jarayoniga yangicha yondashib, ijodkorlik, bunyodkorlik tatbiq etilsagina, ta`lim samarasini yangi bosqichga ko`tariladi, ya`ni:

- bolaning talabi, moyilligi, istak-xohishi uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;
- o`quvchining o`quv mehnatiga mas`uliyati, javobgarligi va burchi oshadi;
- bilimlarini mustaqil egallash malakalari shakllanadi;
- erkin fikrlash malakasi ortadi;
- shaxsning jamiyatda o`z o`rnini tezroq topishi uchun muhit yaratadi.

Buning uchun bugungi kunda boshlang`ich sinf o`qituvchilar o`z o`quvchilariga “Sen buni bilishing kerak” degan majburlovchi da`vatdan “Menga bu zarur, men buni bilishga va uni hayotda qo`llashga qodirman” degan ichki ishonch va intilishni uyg`otishga o`tishi kerak.

Yangi pedagogik texnologiya ta`lim samaradorligini oshirishning muhim mezonidir.

Yangi pedagogik texnologiyani qo`llashning ahamiyati katta. Hammamizga ma'lumki boshlang`ich o`quvchilar yangilikka intiluvchan, qiziquvchi, bilim olishga shijoati yuksak darajada bo`ladi.

Odatda, o`qituvchining o`quvchilarga bir xil qolipda dars o`tishia n'anaga aylangan. Endilikda esa o`quvchilarga mustaqil topshiriq berish, darsga mustaqil tayyorgarlik ko`rib kelish, berilgan mavzu yuzasidan erkin fikr bildirishni yangi

usulda dars o'tishning asosidir. Noan'anaviy usulda dars o'tishda biz o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruhlarga bo'lib dars o'tishimiz mumkin. Bunda har bir o'quvchi bilan yakka tartibda ishlashga imkoniyat bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda dars o'tishda asosan, o'yin usulidan, interfaol usullardan, modulli texnologiyadan foydalanish mumkin. Bu metodlarning hammasi ham bolalardan mustaqil ishlashni, o'z fikrini erkin bayon qila olishni, keng fikrlashni talab etadi.

Agar boshlang'ich sinf o'qish darslarini yangi pedagogik texnologiyadan foydalanib o'tilsa, u holda:

- O'qish darslarida o'rganiladigan mavzuni o'quvchilarga qiziqarli qilib tushuntirishga imkon yaratiladi;

- o'quvchilarning zo'riqishining oldini olinadi;

- o'quvchilarning mustaqil bilim olishga imkon yaratiladi va ularning mustaqil faoliyati rivojlanadi;

- har bir o'quvchining darsga qiziqish bilan ishtirok etishi, o'z fikrni erkin bildirishga imkon bo'ladi;

- o'quvchilarning og'zaki nutqini erkin bildirishga imkon bo'ladi;
- o'quvchilarning og'zaki nutqining to'g'ri, ravon aniq tushunarli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi;

- bo'sh o'zlashtirishning oldi olinadi.

Hozirgi vaqtida turli pedagogik texnologiyalar mavjud bo'lib, ular bir-biridan yo'nalishi va maqsadi bilan farqlanadi, lekin umumiy jihatni o'quvchilar tafakkurini o'stirishga yordam berishdir.

Malumki, keyingi yillarda ta'lim berishda o'quvchilarni faollashtirish hamda ular tafakkurini rivojlantirish masalalariga e'tibor kuchaygan bo'lsa-da, uni amalda qo'llash juda sust bormoqda.

Pedagogik adabiyotlarda ta'limni takomillashtirish, o'quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish, rivojlantiruvchi ta'lim, ta'limning yangi faol (innovatsion) metodlari, muammoli o'qitish metodi, dasturlashtirilgan ta'lim kabi atamalar negizida o'nlab nazariyalar, yondashishlar to'g'risida ma'lumot berilgan. Har qaysi

kontseptsiya o`z zamonasi uchun ilmiy progressiv g`oyani ilgari surgan va ta`lim-tarbiya jarayonining samaradorligini muayyan darajada oshirishiga xizmat qilib kelgan. Lekin ularning har biri alohida ilmiy – uslubiy jihatdan tahlil qilinsa, o`zining bir tomonlamaligi bilan ko`zga yaqqol tashlanadi. Bunday umumiyligida nuqsonning asosiy sababi pedagogik texnologiyaning barcha tarkibiy qismlarining ham nazariy mulohazada, ham amaliy faoliyatda qamrab oliganligidadir.

Ushbu kamchiliklarni keltirib chiqaruvchi bosh omil – ta`lim-tarbiya jarayoniga subyekt (o`qituvchi) sifatida maqom (status) va rol berib keliganligidadir. Binobarin, ta`lim – tarbiya jarayonini bir tomonlama ta`sir o`tkazish va axborot (ma`lumot, bilim) uzatish har xil xususiyatlari malakalarni shakllantirish tamoyillariga bo`ysundirilgandir. Natijada ta`lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilari o`qituvchi bilan o`quvchilar o`rtasida teng huquqiylikning buzilishi yuz berganligi tufayli birining ikkinchisi ustidan ustuvorligi, hukmronligi qonuniy ahamiyat kasb etgan. O`quvchilar (o`quv motivlari, tabiiy mayllari, iste`dodi, salohiyati, saviyasi, uquvi) zehni mazkur jarayonda hisobga olinmagan. Ta`lim –tarbiya jarayonida subyekt (o`qituvchi) –subyekt (o`qituvchi va o`quvchi) munosabati yaratilmas ekan, samaradorlik, mustaqil, ijodiy fikrlash to`g`risida gap bo`lishi mumkin emas.

Ta`lim-tarbiya mazmuni to hozirgi kungacha kommunikatsiya, ya`ni bir yoqlama axborot uzatish (o`qituvchi axborot manbai, o`quvchi esa uni qabul qiluvchi) asosida qurilib kelinmoqda, vaholanki, u kommunikatsiya, interaktsiya, pertsepsiya singari tarkiblardan iborat bo`lishi lozim.

Hozirgi zamon o`qituvchi o`quvchilarning taafkkurini shakllantirish uchun quyidagilarga e`tiborni qaratmog'i lozim:

- ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ta`minlanganligi;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollanishi;
- metodologik jihatdan fanni yaxshi tushunish;
- psixologiya va pedagogik bilimlarga egaligi.

Biz o`quvchilarning tafakkurini shakllantirishga samarali ta`sir etadigan usullar haqida qisqacha to`xtalib o`tamiz.

“Tarmoqlar” (“Klaster”), “Dialogli o’qitish usuli”, “Matnlar bilan ishglash orqali”, “Xulosa” (“VEER texnologiyasi”).

“Tarmoqlar” (Klaster)-fikrlarning tarmorqlanishi bo’lib, u o’quvchilar mavzuni chuqur o’zlashtirishga hamda mavzuga taalluqli aniq fikrni erkin ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog’langan tarmoqlanishlarini o’rgatadi.

O’qituvchi o’quvchilarning fikrini jalb qilish maqsadida doskaga bir so’z yozadi.

Ushbu so’z ularda qanday tasavvur hosil qilganini so’raydi hamda o’sha tasavvurimda hosil bo’lgan so’zlarni yozish, bu so’z atrofida qanday maydon hosil bo’lganligini o’zlari topib yozishlari kerak. O’quvchilarning bilimlarini aniqlash uchun tasavvur qilish darajasi hisobga olinadi. Shu maqsadni amalga oshirish uchun o’quvchilarni 5-6 tadan guruhlarga ajratib, ularga hamda bo’lajak munosabatni hosil qiluvchi so’z beriladi. So’ngra guruhdagilar berilgan so’zlarni kichik ma’nolarini topadilar hamda ushbu kichik ma’nolarini topadilar hamda ushbu kichik ma’nolarini bir-biriga birlashtiradilar. Bir qancha so’zlarni berib, ular atrofiga (butunga) qismlarni (bo’laklarni) ajratuvchi (kichik ma’nolarni) birlashtirish kerakligi aytiladi va guruhdagilar birgalashib bu masalalarni hal qiladilar. Masalan:

## GULLAR

Lola

Boychechak

Binafsha

Chuchmoma

Atirgul

Ushbu maydondan o’quvchilar bir qancha maydonchalarni hosil qilishni bilsalar, ularning lug’at boyligi oshadi, tafakkuri rivojlanadi. O’quvchilar hosil qilgan so’zlarni bir-biri bilan taqqoslaydilar. Natijada ularning har biriga xos bo’lgan umumiyl va xususiy belgilar aniqlanadi. Albatta, ularning o’ziga xos bo’lgan

xususiyatlarini ta`riflash jarayonida nutq rivojlanadi hamda hukm, xulosa chiqarishga o`rganadi.

Dialogli o`qitishni mantiq qonunlariga amal qilgan holda tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Ma`lumki, o`quvchilar suhbat vaqtida o`zaro izchil bog`langan, qiziqarli savollar bilan murojaat qilinishi ularning mantiqiy fikrlariga asos bo`ladi. O`quvchilarga dars davomida savol berish usulidan foydalanish katta samara beradi.

Matn yaratish va matn ustida ishslash o`quvchilarning tafakkurini o`stirishga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Bunda voqeа-hodisalarni idrok qilishi, mohiyatini idrok qilishi, mohiyatini anglash, munosabat bildirishi kabi didaktik maqsadlarni amalgaloshirishlari natijasida tafakkur va nutq rivojlanadi. O`quvchilarga matnlar ustida ishslashni o`rgatish orqali ularda ijodiylik, yaratuvchanlik (kreativlik) ni shakllantirish mumkin. O`quvchilarni ijod qilishga undashning asosiy mohiyati – tafakkurini muttasil o`stirib borishdir. Har bir o`quvchi o`rganganlarini mushohada qilish bilan amaliyotga tatbiq qilishi, tizimga solishi, mustaqil ravishda muhokama qilishi tafakkurini rivojlanganligining belgisidir.

VEER texnologiyasi- bu ko`p tarmoqli, muammo xarakteridagi mavzularni o`rganishga qaratilgan. Ya`ni, mavzuning turli tarmoqlari bo`yicha bir yo`la axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalarda muhokama qilinadi. Masalan, afzallik va kamchilik, ijobiy va salbiy, foyda va zararlari belgilanadi. Natijada tanqidiy, taxminiy hamda mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Ushbu interfaol texnologiya mavzuni o`rganishning turli bosqichlarida qo`llanilishi mumkin.

- boshida: o`z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o`rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur anglab yetish;
- yakunlash bosqichida: o`zlashtirilgan bilimlarni tartibga solish.

Yuqorida keltirib o`tilgan texnologiyalar o`quvchilarda tanqidiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy hamda mustaqil tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi.

O`quvchi faol bo`lishi uchun, avalo, o`qtuvchi faolligi talab etaladi.

Darhaqiqat, faollik – bugunning eng muhim tushunchasi. CHunki Vatanimizning ravnaqi, ta`lim taraqqiyoti ko`p jihatdan o`qituvchi va o`quvchilarning faolligi blan chambarchas bog`liq. Afsuski, faollikka daxldor ommaviylik borasida

muammolarning borligi sir emas. Qirq besh minut davom etadigan dars jarayonida bir og`iz so`zlamaydigan «indamas» o`quvchilar, darslikdan ko`z ololmaydigan o`qituvchilar oramizda ko`plab topiladi.

Dars jarayonida faollikni ta`minlash uchun quyidagi usullardan foydaklanish mumkin.

Guruhragar taqsimlash.

Agar o`qituvchi o`quvchilarning erkin fikrlashini xohlasa kichik guruhlarda ma`lum bir texnologiyadan foydalanishi lozim. Bunda quyidagi uchul va vositalarga tayaniladi:

1. O`quvchilar sonini hisobga olgan holda sinf ikkitadan oltitagacha guruhlarga bo`linadi.

2. Har bir guruhda to`rttadan oltitagacha a`zo bo`lishi kerak. Guruhga eng faol o`quvchi sardor qilib saylanadi.

3. Har bir guruhga past o`zlashtiruvchi o`quvchilar teng taqsimlanishi maqsadga muvofiq.

4. Guruhlarni yangi mavzuga mos tarzda nomlanadi. Masalan, 3-sinf “O`qish kitobi” dagi “Tengdoshlar” bo`limining 1-mavzusi istiqlolimiz haqida. Shunga ko`ra guruhlarni nomlash mumkin. Guruh a`zolari jamoa nomini she`rlar, fikrlari bilan izohlaydilar. O`qituvchi esa ularni to`ldiradi.

5. Guruhlarning ko`pligi ish natijalarini topshirish vaqtini cho`zib yuboradi. Guruhda o`quvchilar sonining ko`pligi esa guruh ishida faol ishtirot etish imkonini cheklaydi. Shuning uchun o`quvchilarni guruhlarga taqsimlashni avvaldan rejalashtirish zarur.

6. Guruhlar tarkibidan doimo boxabar bo`lish, faqat “a`lochi” o`quvchilardan yoki “past” o`zlashtiruvchi o`quvchilardan iborat guruh tuzilishiga yo`l qo`ymaslik lozim.

Iloji boricha, guruhlar tarkibini tez-tez almashtirgan ma`qul. Buning uchun guruhlarga taqsimlashning qiziqarli usullarini o`ylab topish kerak.

Kichik guruhlarda ishslash.

Bu usul dars jarayonida o'quvchilarni faollashtiradi. Topshiriq yoki savol asosida muammo tanlab olinadi. Berilgan savolga bahsli jihatlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Kichik guruhlarda ishlayotganda guruh ishtirokchilari o'rtasida vazifalar taqsimlangani ma'qul. Bir o'quvchi munozarani boshlab beradi. Guruhga sardor tanlanadi. Sardor guruh a'zolari ichida eng aqillisi, ziyragi bo'lishi lozim. Bu jarayonda o'qituvchi berilgan savollar uchun ajratilgan vaqtga e'tiborli bo'lishi talab etiladi. Ayni paytda o'qituvchi topshiriqni aniq qilib berishi kerak. Agar biror guruh topshiriqni tushunmasa, o'qituvchi guruh oldiga kelishi va topshiriqni tushuntirishi lozim. Guruhlar ishini o'quvchilardan tashkil etilgan ekspert guruhi baholab boradi. Guruhlar ishini yakunlaganlaridan so'ng ekspertlarga so'z beriladi, ular natijalarni e'lon qiladilar.

Kichik guruhlardan ishlashda o'qituvchi quyidagilarga amal qilishi lozim:

1. O'qituvchi kichik guruhlardan ishlashi uchun belgilangan vaqtga aniq rioya etadi.
2. Guruhlarga yordam berayotganda o'qituvchi tazyiq o'tkazmaydi.
3. Birinchi guruh aytgan fikrlar ikkinchi guruh tomonidan muhokamaga tortilishiga ijobiy qaraydi.
4. Zarur bo'lib qolgan o'rnlarda bildirilgan fikrlarga o'qituvchi tomonidan tuzatish kiritilishi mumukin.

Tezkor savol-javob.

Mazkur usul o'tilgan mavzular yuzasidan o'quvchilar olgan bilimlarini mustahkamlash va aniqlashning eng tezkor usuli bo'lib, o'quvchilarni tez va aniq fikrleshinga o'rgatiladi, bilimlarni yanada oshirishga undaydi, xotirani charxlaydi, dunyoqarashini kengaytiradi. Undan foydalanishda quyidagilarga amal qilinadi:

1. Tezkor savollar o'qituvchi tomonidan o'tilgan mavzular asosida tuziladi.
2. Javobni o'yash uchun vaqt berilmasligi avvaldan aytildi.
3. Savolarga javob berishda vaqtga jiddiy e'tibor beriladi.
4. Guruhlar bilan ishlashda savollarning miqdor va mazmunan yaqinligiga alohida e'tibor beriladi.
5. Natijalar o'z vaqtida e'lon qilib boriladi.

Tezkor savollardan namunalar.

(3-sinf uchun)

1. Vatan deganda nimani tushunasiz?
2. Davlat ramzlariga nimalar kiradi?
3. Bayrog`imizdagи yashil rang nimani bildiradi?
4. Madhiyamizning muallifi kim?
5. Siz qaysi respublikada yashayapsiz?
6. O`zbekiston qachon mustaqil Davlat deb e`lon qilindi?
7. O`zbekistonning poytaxti qayer?
8. O`zbekistonda davlat tili qaysi til?
9. Alisher Navoiy kim bo`lgan?
10. Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa nima?

“Aqliy hujum” usuli.

“Aqliy hujum” usuli muammoli darslarni tashkil etishda keng qo`llanadigan usul hisoblanadi. Bu usul o`quvchilar tasavvurini boyitib, ularni ijodiy faollikka undaydi, muamollarga ko`plab yechimlarni o`ylab topishlariga yordam beradi. “Aqliy hujum” usulini o`tkazishda quyidagi qoidaoarga amal etiladi:

1. O`quvchilar erkin holda joylashtirildai.
2. O`rtaga muammoli savol tashlanadi.

“Aqliy hujum” usulini o`tkazish qoidalari, tartib, intizom tushuntiriladi.

4. O`quvchilar o`z fikrlarini yozishlari uchun doska va vatman qog`ozni oldindan tayyorlab qo`yiladi.

O`quvchilarning erkin fikrashlari uchun sharoit yaratib beriladi.

6. O`quvchilar bildirgan g`oyalar soni, ularning o`ziga xosligi aniqlanadi.
7. Bildirilgan g`oyalar soni va sifatiga qarab baholanadi.
8. O`zga guruh a`zolari ustidan kulish, kinoyali sharhlar, mayna qilishga yo`l qo`yilmaydi.
9. G`oyalar qancha ko`p bo`lsa, shuncha yaxshiligi uqtiriladi.
10. G`oyalar takroran aytilmaydi. “Aqliy hujum” usuli uchun taxminan quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. G`oya nima?
2. Milliy g`oya nima?
3. Bunyodkor g`oyalarning ahamiyatini aytинг.
4. Vayronkor g`oyalarga munosabatiingiz qanday?
5. “Zukkolar” boshqotirmasi uchsuli.

Bu usul o`quvchining fikrini bir joyga jamlashga, xotirasingim mustahkamlashga yordam beradi. Boshqotirma usuli quyidagicha o`tkaziladi:

1. Boshqotirmani o`qituvchi avvaldan tayyorlab qo`yadi.
2. Boshqotirmani bajarish uchun vaqt belgilanadi va vaqtga qat`iyan amal qilinadi.
3. Guruhlarga berilgan boshqotirma so`zlarni miqdo rva mazmunan tengligiga e`tibor beriladi.
4. Berilgan boshqotirma javoblari tekshiriladi va g`eolib rag`batlantiriladi.

	1	G'				
2		U				
	3	N				
4		Ch				
	5	A				
6		O				
7		Y				

“Xotira mashqi” usuli.

Ushbu usul o`quvchilarning xotirasini mustahkamlashga, olingen bilimlarani yodda saqlab qolishga yordam beradi. Bu usul quyidagi tartiba o`tkaziladi:


1. O`tilgan mavzulariga oid tarixiy sanalar o`qituvchi tomonidn oq qog`ozga yoki doskaga yozib, tayyorlab qo`yiladi.
2. O`qituvchi bu tarixiy sanalarda qanday voqealar bo`lganligini yozishlari kerak.
3. Topshiriqni bajarishda belgilangan vaqtga amal qilinadi.

4. Topshiriqni to'liq bajargan guruh yoki o'quvchi g'olib hisoblanadi.  
“Xotira mashqi” usulida foydalaniladigan tarixiy sanalardan namunalar:

1. 1991-yil 1-sentabr.
2. 1992-yil 2-iyul.
3. 1336-yil 9-aprel.
4. 1441-yil 9-fevral.
5. 2006-yil 25-avgust.

Shuningdek, biz ham mazkur ishimiz jarayonida undan unumli foydalandik.

### **Dars vaqtida o'quvchilar faoliyatini tashkil etish shakllari**



Frontal (bir necha o'quvchidan yakka holda) Yakka holda, juft bo'lib, guruhli, frontal shaklda.<sup>1</sup>

#### **An'naviy dars ishlanmasidan namuna:**

**Mavzu:** Navro`z - bahor bayrami. (Muzayyana Alaviya.)

**Darsning maqsadi:** O'quvchilarda bahor fasli va shu faslda nishonlanadigan bayram va marosimlar haqida bilim va ko'nikmalarini hosil qilish. O'quvchilarning fasllar almashinuvni haqidagi bilimlarini oshirish.

**Darsning turi:** Yangi bilim beruvchi, mustahkamlovchi.

**Darsning usuli:** An'anaviy.

**Darsning jihizi:** Darslik, bahor fasli tushirilgan plakat.

**Darsning borishi:** 1. Salomlashish.

2. Davomatni aniqlash.

3. O'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

---

<sup>1</sup> Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. –T., 2008.-B. 81-82.

#### **4. O'tilgan mavzuni mustahkamlash va baholash.**

Savollar: 1. Qaldirg'och she'rini ifodali o'qing.

2. She'rda qaldirg'och haqida nimalar deyilgan?

3. Qaldirg'ochni ko'rganmisiz? Belgilarini ayting?

#### **5. Yangi mavzu bayoni.**

### **Navro'z – bahor bayrami.**

( Muzayyana Alaviya )

Olkamizda bahor... Shuning uchun ham qadimdan dehqonchilik ishlarining boshlanishini bahorning yigirma birinchi martidan hisoblaganlar.

Bu bayram *Navro'z* ya'ni *Yangi kun* deb atalgan.

Dehqon ahlining qadimiy bayrami – Navro'zni har yili zo'r quvonch, katta tayyorgarlik bilan kutib olish elimizning eng yaxshi udumlaridan biri bo'lib qolgan.

Dehqonlar Navro'zda dala ishlariga kirishib, yer hayday boshlaydilar. Navro'zgacha yo'llarga ko'chatlar ekiladi. Ko'chalar tozalanib, ariqlar qaziladi. Hammayoq supurib – sidiriladi. Navro'z kirar kuni qo'g'irmoch qovurilib, turshak qaynatiladi. Moy, qaymoq, jizza, yong'oq solib, cho'zma chalpag-u kulcha, lochiralar pishiriladi. Yalpiz, ismaloq kabi ko'katlardan somsalar yopiladi. Sumalak tayyorlanadi.

Navro'z kunlari yoshlari keksalar va bemorlarni ko'rishga borishadi.

Yalpiz, binafshalarni olib borsalar, qariyalar: „Esonlig-u omonlik, hech ko'rmaylik yomonlik, yanagi oy-u yillarga o'ynab-kulib yetaylik”, - deb tilak bildirishadi.

Xonadonlarda to'kin-sochinlik bilan mehmon kutiladi.

Belgilangan vaqtda hamma dala, qir, bog'-rog'larga chiqib, o'yin – kulgi qilib dam oladi.

Siz, bolalarning bahorgi ta'tilingiz ham Navro'zga to'g'ri keladi. Shuning uchun tabiat qo'yniga, dala-qirlarga, tog'-u toshlarga sayrga chiqinglar. Tabiat bilan tanishib, ham bilim, ham zavq olinglar. Sho'x-sho'x o'ynab kulinglar. Qo'shiq aytib, raqsga tushinglar.

**Darsni mustahkamlash:** Savollar: 1. Navro`z qanday bayram ekan?

2. Navro`z yilning qaysi faslida nishonlanadi?
3. Bu bayramda qanday tansiq taomlar tayyorlanadi?
4. Bahorgi mehnat haqida maqollar aytинг?

**Darsning yakuni: Uyga vazifa:** Matnni ifodali o`qib, mazmunini so`zlab berishga tayyorgalik ko`rib keeling.

Faol ishtiroki etgan o`quvchilarni baholash va rag`batlantirish.

**Noan'anaviy dars ishlanmasi.**

**Mavzu:** Ona mehri (ertak). O`ktam Usmonov.

**Darsning maqsadi:**

**1. Ta'limiy maqsad.** O`quvchilarning o`qish tezligini yaxshilash, ongli va ifodali o`qishga o`rgatish.

**2. Tarbiyaviy maqsad.** O`quvchilarda tabiatga ota-onaga bo`lgan muhabbat va yurtga bo`lgan sadoqat kabi ezgu tuyg`ularni uyg`otish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.** Ularni mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o`stirish, xotirasini mustahkamlash. O`qish ko`nikmalarini takomillashtirish, lug`atini yangi so`zlar bilan boyitish.

**Darsning turi:** Yangi bilim beruvchi, ertak o`qish darsi.

**Darsning usuli:** Izohli o`qish , mustaqil ish metodi, guruhlarda ishlash.

**Darsning jihizi:** Darslik, qog`oz, flomaster, yelim, qisqich, qaychi, mikrotestlar, rag`batlantirish uchun jetonlar.

Darsning borishi.

**Tashkiliy qism:** 1. Salomlashish.

2.Sinf xonasi va o`quvchilarni darsga tayyorligini tekshirish.

1. Navbatchi va davomatni aniqlash.
2. Nutq o`stirish daqiqasi: Bunda o`quvchilarni tez aytishga o`rgatish va bu yordamida ularni aniq va ravon so`zlashga o`rgatish. Masalan: Tolib tandir tagidan tanga topdi.

3. O`tilgan mavzuni mustahkamlash. Bunda „ FSMU” texnologiyasidan foydalanaman.

4. Sinf sharoiti. O'quvchilarni turli usullar bilan guruhlarga ajiratib olaman. Sinfdag'i partalar "V" harfi ko'rinishida joylashtirilgan.

### **Asosiy qism:**

Sinf o'quvchilari guruhlarga bo'linib o'tiradilar. O'qituvchi guruhrar bilimi teng bo'lishi uchun qizil, ko'k, oq, yashil, sariq rangli doirachalardan foydalanadi. Bir xil rangdagi doira egalari bir guruhni tashkil etilishi aytildi. Har bir guruh o'ziga nom tanlaydi. Buning uchun o'quvchilarni darsga hozirlash, qiziqtirish, harakatga keltirish, mavzuni mustaqil anglab yetishlari uchun ilg'or pedagogic texnologiyadan foydalanish zarur. O'qituvchi darsni boshlashdan oldin kichik suhbat tashkil etadi yoki „Intervyu” texnologiyasidan foydalanadi.

— So'zlari bol, durdona,

Mehnatda eng mardona.

Olam ichra yagona,

Sizsiz, ey aziz ....!

O'quvchilar bu misralada kimga ta'rif berganmiz?

— O'ylab ko'ringchi o'quvchilar bugungi darsimiz nima haqida ekan?

Doskaga mavzu nomi yoziladi. So'ng guruhlarga mustaqil ravishda sardor va nom tanlashlari va nomlariga izoh berishlari so'raladi.

Taxminan, 1-guruh "Bilimdonlar", 2-guruh "Zukkolar", 3-guruh "Chaqqonlar" kabi va guruhrar ichidan sardor tanlashadi.

Darsning borishi.

Chaqiruv bosqichi. Guruhrar taqdimoti.

Har bir guruh o'z nomiga ta'rif beradi va shior tanlashadi.

1-guruh — "Bilimdonlar": Guruh a'zolaridan biri o'z guruhiga ta'rif beradi, guruh sardori shior tanlaydi. Boshqa guruhrar ham shu tariqa o'z guruhrarini tanishtirishadi.

O'qituvchi o'quvchilar javoblarini umumlashtirib, har bir guruhni rag'batlantiradi. Shu tarzda yangi mvzuni o'qishga tayyorgarlik davri yakunlanadi.

Anglash bosqichi. Bu bosqichda „Ona mehri” ( O'ktam Usmonov ) ertagi ( o'qituvchi tomonidan qismlarga bo'lib kelingan bo'ladi)ning har bir qismi

guruhdagi yaxshi o`qiydigan o`quvchilarga o`qitiladi. “Ifodali o`qish” musobaqasi uyushtiriladi. Eng yaxshi o`qigan o`quvchi aniqlanadi va rag`bat jetonlari beriladi. Bunda 4 ta o`quvchi darsdan tashqariga chiqarib yuboriladi va o`quvchilardan ertak mazmuni so`raladi, keyin tashqaridagi o`quvchilarni birin-ketin chaqirib, ertak mazmunini birinchi ishtirokchi ikkinchisiga, ikkinchisi uchinchisiga, uchinchisi to`rtinchisiga so`zlab beradi. Shunda o`qilgan ertak bir og`izdan ikkinchisinikiga yetibborgunga qadar qanday o`zgarishlar haqida va o`quvchilarni fikr doirasini yetkazib berish qobilyatini aniqlash mumkin va shu mavzuni mustahkamlaydi.

Darslikdagi savo-topshiriqlar ustida ishslash. Bunda barcha guruh bajaradi. Guruhning faol ishtirokiga qarab ball qo`yiladi.

1. Ona va bola qanday qilib soylikka borib qolishdi?
2. Nima uchun ona yalmog`izninig yuziga chang soldi?
3. G`azablangan yalmog`iz onani qanday jazoladi?
4. Yalmog`izni nega titroq bosdi?
5. Bulbulchaning uzoq sayrashiga sabab nima?
6. Yalmog`izning halok bo`lishini so`zlab bering.
7. Ertakning eng qiziqarli yerini so`zlab bering.

Bunda o`quvchilar o`zaro bir-birlari bilan intervyu shaklida olib borishadi.

Darsni mustahkamlashda “Muloqat” texnologiyasidan foydalilanildi. Bu texnalogiyani amalgam oshirish uchun 6 ta bosqich bajariladi.

1-bosqich, mavzu doirasida muammo qo`yish va texnologiya shartlari bilan o`quvchilarni tanishtirish.

2-bosqich, guruh a`zolaridan himoyachi tanlanadi, ular muammo yechimida o`z guruhlarini himoya qiladilar.

3-bosqich, guruhlar himoyaga tayyor bo`lgach, o`qituvchi guruhlarning biriga himoya uchun so`z beradi. Guruh vakili jamoa nomidan so`zga chiqib, ularga topshirilgan vazifa yuzasidan tayyorlagan materiallar va dalillar asosida himoyalanishga kirishadi.

4-bosqich, bunda ham o`qituvchi ikkinchi guruh uchun ham birinchi guruh kabi topshiriq beradi, ular ham himoyalanadilar. Bu jarayonda o`qituvchi o`quvchilarni fikrini tarqatib qo`ymaslik uchun biroz chetlanadi va ularga halqit bermaydi. Shu tariqa boshqa guruhlar ham o`zlariga topshirilgan vazifani bajaradilar.

5-bosqich, guruhlar bir-biriga savol berishni boshlaydilar. Guruhlarning bergen javoblari oldingi bosqichlardagi dalil, misollar va fikrlarni yanada oydinlashtiradi. O`qituvchi bunday holatga sharoit va imkoniyat yaratgan holda baxs – munozaralarni samimiylilik bilan boshqaradi.

6-bosqich, o`quvchilar yuritgan fikr va mulohazalarni umumlashtirib faol guruhnini g`olib deb e`lon qiladi.

Bu texnologiya asosida yangi o`tilgan mavzu mustahkamlanadi va o`quvchilarning fikrlash doirasi va mustaqil ishlash qobilyati oshadi.

**Darsni yakunlash:** 1. Guruhlarning umumiyligi ballarini e`lon qilish va g`olib guruhnini rag`batlantirish.

Uyga vazifa: Ertak mazmunini ifodali qilib o`qib keeling va „Ona – muqaddas zot“ mavzusida qisqa insho yzib keling.

Xullas, 3-sinf o'qish darslarida “Tengdoshlar” mavzusini o`rganish jarayonida ana shunday interfaol usullardan foydalanish o`quvchilarning darsga bo`lgan qiziqishlarini ortishiga sabab bo`ladi. Jumladan, o`quvchilarni biz keng to`xtalayotgan bo`lim materiallari bilan yaqindan tanishtirish jarayonida ham bundan foydalanish mumkin.

Demak, 3-sinf o'qish darslarida “Tengdoshlar” mavzusini o`rganish jarayonida shu kabi interfaol usullardan unumli foydalanishimiz mumkin. Bunda o`z navbatida darslikda berilgan mavzularni o`qish darslariga e`tibor qaratiladi. Shuningdek, darslikdagi berilgan mavzularni asosan ikki turga, she`riy va nasriy turga bo`lib, mazkur mavzular to`laqonli o`qish sifatlarini namoyish etilgan holda tahlil etiladi.

Umuman, 3-sinf o'qish darslarida o`quvchilar “Tengdoshlar” bo`limiga kirgan har xil janrdagi asarlar haqida qanday bilim, ko`nikma va malaka hosil qilganlarini

bilish maqsadida beshtadan test savollari asosida aniqlanadi. Har bir test savoli 1 ball asosida baholanadi.

5 ta test savoliga javob bergan bo`lsa 5 ball

4 ta test savoliga javob bergan bo`lsa 4 ball

3 ta test savoliga javob bergan bo`lsa 3 ball

2 ta test savoliga javob bergan bo`lsa 2 ball

Umuman, har bir dars mashg`ulotlari davomida o`tkazilgan tajriba-sinov ishlarini imkon qadar qiziqarli va bir-birini takrorlamagan holda tashkil etib olib borilsa ijobiy natijalarga erishish mumkin.


Xullas, ishimizning 3-bosqichida buni aniqlash imkoniga ega bo`lamiz.

III bosqich. Solishtirma tahlil.


Maqsad va vazifalar: Kuzatuv va rivojlantiruvchi bosqichlaridagi natjalarni solishtirma-analiz qilish, ularni jadvallarda aks ettirish.

### **TAJRIBADAN KEYINGI NATIJALAR**

**3-“B” sinf**



**3-“V” sinf**



O`quvchilarning soni - 35

O`quvchilarning soni-37

Nazorat sinfi – 3 –“B”

Tajriba sinfi -3-“V”

Ballar

Natija

%

Ballar

Natija

%

“5” ball

8

23

“5” ball

9

24

“4” ball	11	31	“4” ball	10	27
“3” ball	14	40	“3” ball	16	43
“2” ball	2	6	“2” ball	2	6

$$\begin{array}{ll}
 35-100 \% & 37-100\% \\
 19-X & 19-X \\
 35X=19 *100 & 37X=19*100 \\
 X= 19*100:35 & X=19*100:37 \\
 X=54 \% & X=51 \% \\
 \end{array}$$

Tajriba sinfida o`quvchilarning o`zlashtirish ko`rsatkichlari quyidagilarni tashkil etadi:

$$\begin{array}{l}
 “5” ball 9 ta; \\
 “4” ball 10 ta; \\
 “3” ball 16 ta; \\
 “2” ball 2 ta;
 \end{array}$$

Nazorat sinfida esa o`quvchilarning o`zlashtirish ko`rsatkichlari quyidagilarni tashkil etadi:

$$\begin{array}{l}
 “5” ball 8 ta; \\
 “4” ball 11 ta; \\
 “3” ball 14 ta. \\
 “2” ball 2 ta;
 \end{array}$$

Tajriba natijalarini tahlil qiladigan bo`lsak, nazorat sinfida “5” va “4”ballarning salmog`i 54% ni tashkil etadi. Tajriba sinfida esa yaxshi va a`lo baholarning salmog`i 51 % ni tashkil etdi. Tajriba-sinov ishining oldingi bosqichi bilan so`nggi bosiqichini solishtirganda nazorat sinfida dastlab ushbu bo`limga kirgan har xil janrdagi asarlarni o`rganish 51 % ni tashkil qilgan bo`lsa, oxirida esa 54 % ni tashkil qildi. Demak, 3 % ga farq qilgan. Tajriba sinfi bo`lmish 3-“V” sinfida esa oldingi bosqichda o`zlashtirish natijasi 46 % ni tashkil qilgan bo`lsa, tajribasinov ishimizning so`nggi bosqichida bu ko`rsatkich 51 % ni tashkil qildi. Demak, 5 % ga ko`zlangan natijaga erisha oldik.

Bulardan ko`rinib turibdiki, qilingan tajriba natijasi oshgani isbotlandi. Demak, bevosita qiziqarli tarzda tashkil etib olib borilgan dars samarali ekan. Bu orqali o`quvchilarda bizning ishimizga bo`lgan qiziqishlarini ortishiga, ularni shu mavzu yuzasidan erkin va mustaqil fikrashiga, tinish belgilari haqidagi bilim darajalari, malakalarini o`stirishga yo`naltirildi.

Umuman olganda, yangi pedagogik texnologiyadan foydalanimiz 3-sinf o'qish darslarida “Tengdoshlar” mavzusini o`rganish bo`yicha oldib borilgan darslarda ular tanishish imkoniyatiga ega bo`lgan mavzular xususida keng va atroficha bilim olishlariga, tushuncha hosil qilishlariga ham erishiladi. Shu bilan birga, ular mazkur matlarni quruq o`qish bilangina cheklanmay, balki ularni ongli ravishda tahlil qilib o`qish va o`zlashtirishga o`rganadilar ham o`zlari uchun eng kerakligi insoniylik, insonparvarlik ruhida chiniqishni oladilar.

## XULOSA

3-sinf o`quvchilarini o`qish darslarida “Tengdoshlar” bo`limi bilan tanishtirish uchun o`qituvchi katta malakaga, mahoratga va tajribaga ega bo`lmog`i lozim. Uning har bir darsi bir sahnaviy asarga o`xshashi, bu orqali o`quvchilar qalbiga sezilarli ta`sir o`tkaza olishi kerak. Toki, o`quvchi dars tugasa ham, shu o`qituchining darsini intiqib kutadigan bo`lsin. Hattoki, o`qituvchi uyidan yomon kayfiyatda chiqqan bo`lsa ham, bu kayfiyati o`quvchilarga salbiy ta`sir etmasligi kerak. Bu kabi holatlarni biz aktyorlarda, hofizlarda uchratmaymiz. Balki o`qituvchilarda ham shu kabi vaziyatlarga ko`p bora duch kelamiz.

O`zbekiston xalq artistlaridan biri Obid Jalilov o`zining farzandi olamdan o`tgan kuni yangi spektakl premyerasiga kelgani, grimmlarni ham o`zi qilgani, har kungidan o`sha kungi roli tomoshabinlarga qattiq ta`sir qiladigan holda o`ynagani va spektakldan keyingina hamkasblariga boshiga tushgan savdoni aytib, ularni uyiga taklif etgani haqida ko`p bora eshitamiz. Albatta, bu voqeа bizning etimizni jimirlatib, shu san`atkorga nisbatan hurmat hissimizni yanada uyg`otadi.

O`qituvchi ham har bir darsini ana shunday hayotiy voqealarni, ya`ni o`zini qiyagan voqealar bilan uyg`unlashtirmagan holda, olib borsa o`quvchilar undan o`ziga xos tarzda xulosa chiqaradilar, shuningdek, o`rganayotgan bo`lim materiallarini to`liq o`zlashtirishlariga erishiladi ham.

Umuman, 3-sinf o`quvchilarini o`qish darslarida “Tengdoshlar” bo`limi bilan tanishtirish uchun shu sinfdagi bo`lim bilan yaqindan tanishtirish jarayonida mazkur mavzularga bo`lgan ularning qiziqishlarini orttirishga erishilishi lozim bo`ladi. Buning uchun har bir boshlang`ich sinf o`qituvchisi pedagogik mahoratga ega bo`lgan holda ta`lim jarayoniga kirib kelayotgan yangiliklardan boxabar bo`lishi, ularni dars jarayonida bolalarning yoshi va xarakter xususyaitlarini e`tiborga olgan holda qo`llay bilishi lozim bo`ladi.

Agar o`qituvchi o`z ustida ishlamas ekan, albatta uning olib borgan har bir darsi bolalarda yaxshi taassurot qoldirmaydi. Vaholanki, o`qish darsi fanlar ichida eng qiziqarli va o`quvchilarning diqqatini tortuvchi fan bo`lib, bu darsni zerikarli ravshida tashkil etib olib borish yaramaydi. Shuni e`tiborga olgan holda 3-sinf

o`quvchilarini o`qish darslarida “Tengdoshlar” bo`limi bilan tanishtirishga, bu mvvvzulardan o`zlariga ijobiy xulosalarni chiqarib olishlariga urg`uni qaratdik. Sababi, bu bo`lim mavzulari bolalarning ta`lim, tarbiyasida, ma`naviy kamolotida katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bu mavzularni o`tish jarayoniga befarq munosabatda yondashib bo`lmaydi. Buning uchun ta`lim jarayoniga kirib kelgan yangi pedagogik texnologiya, integratsiya, modulli texnologiya, interfaol uslulardan keng qamrovda foydalanib darslarni tashkil etib olib borishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Ayniqsa, interfaol usullar, modulli texnologiya asosida olib borgan darslarimiz o`quvchilarda katta qiziqishni uyg`otdi. Bu o`z navbatida ularni mustaqil va erkin mushohada yuritishga, o`z fikrini qo`rqmay ayta olishiga ham sabab bo`ldi.

Shuning uchun ta`lim jarayonida interfaol usullardan bolaning yosh xususiyatini e`tiborga olgan holda foydalanilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Bu esa o`z navbatida 3-sinf o`quvchilarini o`qish darslarida “Tengdoshlar” bo`limi bilan tanishtirish bo`yicha ularning bilim doiralarining kengayishiga sabab bo`ladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

### **I. IJTIMOIY-SIYOSIY ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat ko'rsatish-eng oliy saodatdir.- Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 304 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.- 176 b.
- 3.Karimov I.A.Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.- 64-bet.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi //Adolat, 2016-yil.-8-dekabr.
- 5.Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.- 104 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi Qarori // Xalq so'zi, 2017-yil.-21-aprel.

### **II. ILMUY-USLUBIY ADABIYOTLAR:**

1. Azizzxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - Toshkent, 2003.- 176 b.
2. Azizzxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Adabiyot jamg`armasi, 2006.
- 3.Ashurmatova D. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilar faolligini oshirish // Boshlang'ich ta'lim, 2016.- № 2.- B.14-15.
- 4.Holqova D.M., Ergashev H. O'quvchi yoshlarni aqliy faoliyatga yo'naltirishda innovatsion ta'limning o'rni haqida // Boshlang'ich ta'lim: muammo va yechimlar (Respublika ilmiy va amaliy anjuman materiallari).-Andijon, 2013 yil.-, B. 201.
- 5.Ihmatov Q. Ilg'or pedagogik texnologiyalar fanidan ma'ruzalar matni.- Namangan, 2000.- 8-bet.

6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. –T., 2008.-B. 81-82.
7. Jo`rayev K. Ifodali o`qish va hikoya qilish.-T.:O`qituvchi, 2001.-B. 7-9.
8. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika: Kasb-hunar kollejlarining talabalari uchun darslik.-Toshkent: O`qituvchi, 2002.-B. 130-132.
9. Masharipova U. Ifodali o`qishni o`rgatish ham san`at // Boshlang’ich ta’lim, 2016.-№ 1.- B. 4-5.
- 10.Nasriddinova D. Kitobim-oftobim. 3: sinfdan tashqari o`qish kitobi.- Toshkent: O`qituvchi, 2014.- 160 b.
- 11.Osipova G. Bilganimiz bilmaganimizdan ko’p // Boshlang’ich ta’lim, 2006.-№ 6. B. 10-11.
12. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o’qitish metodikasi.- T.: Noshir, 2009.- 352 b.
13. Qudratov O., G’aniyev T. Hayotiy faoliyat xavfsizligi. –T.:Aloqachi, 2004.
14. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.
- 15.Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiya: tahlil, ta’rif, mulohaza. – Toshkent, 2000. - 6-bet.
- 16.Sariyev Sh.U. Boshlang’ich sinf o`qish darslarida mustaqil fikrlashga o’rgatish // Boshlang’ich sinflarda ta’lim-tarbiya sifati va samaradorlikni oshirishda ingliz tili va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish: muammo va yechimlar.- Toshkent, 2014.- B.88.
17. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o`quv dasturi.- Toshkent, 2010.- 138 b.
- 18.Umarova M., Hakimova Sh. O’qish kitobi: Uchinchi sinf uchun darslik. – Toshkent: Ijod dunyosi, 2002. – 168 .
- 19.Umarova M., Hakimova Sh. O’qish kitobi: Uchinchi sinf uchun darslik. – Toshkent: Cho’lpon, 2010. – 224.
- 20.Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O’qish kitobi: 3-sinf uchun darslik.- Toshkent: O`qituvchi, 2016.- 216 b.

21.Umarova M. Uchinchi sinfda o'qish darslari: (Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun uslubiy qo'llanma). - Toshkent: Ijod dunyosi, 2004.- 128 b.

22.Xojimatova Y., Mamanazarova R. Faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi yondashuvlar pedagogik texnologiyalarning muhim vositasidir : Metodik tavsiya.- Namangan, 2010.- B. 42-46.

23. G'afforova T., Nurillayeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar.- Toshkent: Ilm Ziyo, 2004. – 80 b.

24.G'affarova T. O'qish kitobi: 2-sinf uchun darslik.- T.: Sharq, 2012.-B.3.

### **III. INTERNET MATERIALLARI:**

- 1.www nam su. uz.
2. WWW. referat. uz.
3. WWW. rambler. literature. ru.
4. [http://daryo.uz/2016/09/02/sogлом она ва бола или-давлат-дастуритувчи](http://daryo.uz/2016/09/02/sogлом_она_ва_бола_или-давлат-дастуритувчи), 2001.- 160 b.

## **MUNDARIJA:**

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. 3-SINF O`QISH DARSLARIDA “TENGDOSHLAR”</b>	
<b>MAVZUSINI O`RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>10</b>
1.1. 3-sinf o`qish darslarida “Tengdoshlar” bo`limiga kirgan har xil janrdagi asarlar tavsifi.....	10
1.2. 3-sinf o`qish darslarida “Tengdoshlar” mavzusini o`rganishning ahamiyati.....	28
<b>II BOB. 3-SINF O`QISH DARSLARIDA “TENGDOSHLAR”</b>	
<b>MAVZUSINI O`RGANISH DARSLARI VA ULARNI TASHKIL ETISH.....</b>	<b>36</b>
2.1. Yangi pedagogik texnologiyadan foydalanib 3-sinf o`qish darslarida “Tengdoshlar” mavzusini o`rganish.....	36
2.2. 3-sinf o`qish darslarida “Tengdoshlar” mavzusini o`rganish darsining metodik ishlanmasi.....	44
<b>TAJRIBA-SINOV ISHI.....</b>	<b>48</b>
<b>XULOSA.....</b>	<b>71</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....</b>	<b>73</b>

**Namangan davlat universiteti pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi, BT 47-2013-guruh bitiruvchisi Abduraximova (Tursunova) Nargiza Zafarjon qizining "O'qish darslarida "Tengdoshlar" mavzusini o'rGANISH metodikasi (3-sinf)" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi yuzasidan ilmiy rahbar, filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Hamidova bilan muloqoti jarayoni**

